

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

M.M. QALANDAROV

BOG‘-PARK ISHLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

TOSHKENT
«DAVR NASHRIYOTI»
2013

UO‘K: 635.92 (075)

KBK: 77.4

Q-20

*Oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv metodik birlashmalar
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan*

Taqrizchilar:

R.Allaberdiyev – O‘zRFA “O‘simlik va hayvonot olami

genofondi” instituti, Botanika bog‘i direktor muovini, b.f.n.

E. Axmedov – Toshkent davlat agrar universitetining

O‘rmonchilik va ekologiya kafedrası katta o‘qituvchisi, b.f.n.

M. Qalandarov

Bog‘-park ishlari. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / M. Qalandarov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Davr nashriyoti» – 2013. -80 bet.

ISBN 978-9943-4092-79

Bog‘-park ishlari bo‘yicha tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanmada bog‘-parklar hududida yer maydonlarini muhandislik asosida tayyorlash, yer osti va usti kommunikatsion tizimlari va drenaj tizimini qurish, bog‘-park inshootlari va dam olish joylarini qurish, bog‘-parklarda, xiyobonlarda manzarali o‘simlik turlaridan kompozitsiyalar, yashil o‘simlik turlaridan maysazor hududlar, gilamli-mozayika ko‘rinishdagi klumbalar va gulzorlar yaratish uslublari keltirilgan. Bog‘larda yo‘l va yo‘lakchalar, har xil ko‘rinishdagi suv havzalari va ko‘priklar qurish tizimlari va bog‘-park ishlarining dendrorejasi berilgan.

Ushbu o‘quv adabiyoti oliy o‘quv yurti va kolleji talabalari, shuningdek, bog‘-park xo‘jaligi ishchi-xodimlari uchun yozilgan.

UO‘K: 635.92 (075)

KBK: 77.4ya722

85.118.7ya722

ISBN 978-9943-4092-79

© «Davr nashriyoti», 2013.

KIRISH

BOG‘-PARK ISHLARI HAQIDA TUSHUNCHA

Mamlakatimiz istiqbolga erishgandan so‘ng butun respublikamizning barcha shahar va qishloqlarida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlariga katta e‘tibor qaratila boshlandi. Natijada zamontalablariga javob beradigan darajadagi bog‘-parklar, xiyobonlar va sayilgohlar barpo etila boshlandi. Buni biz vatanimiz poytaxti Toshkent shahridagi Mustaqillik maydoni, A.Navoiy, G‘.G‘ulom, A.Qodiriy, M.Ulug‘bek nomli va «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui, Samarqand shahridagi Amir Temur, Registon maydonlari va Afrosiyob xiyobonlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu bog‘larda bugungi ko‘kalamzorlashtirishning eng noyob usullarini qo‘llagan holda ajoyib kompozitsiyaga ega bo‘lgan yashil hududlar, klumbalar, maysazorlar va gulzorlar barpo etilmoqda. Bog‘-parklarda manzarali yaproq bargli daraxt va buta turlaridan: lola daraxti, yapon saforasi, go‘zal katalpa, kashtan, piramidasimon eman va terak, oddiy eman, shoyi akas, arg‘uvon, kumushsimon bargli zarang, majnuntol, jo‘ka, sada qayrag‘och, chetan va doim yashil ninabargli o‘simlik turlaridan sharq biotasi, sabina archasi, doim yashil sarv, shakldosh tuyya, virgin archasi, shuningdek, butasimon o‘simliklardan – oddiy va hind sireni, magnoliya sulanja, forzitsiya, samshit, yukka, agava va yapon behisi ekib kelinmoqda. Bir va ko‘p yillik gul turlaridan dastorgul, tagetes, lobeliya, axirantes, binafsha, nargis, saltonila, shafran, sinerariya maritima, exeveriya, irizeniya, salviya, petuniya,

begoniya va boshqa bir nechta manzarali gul o'simliklari turlaridan foydalanilgan holda bog'-parklarda nafis ko'rinishdagi landshaftga ega bo'lgan kompozitsiyalar yaratilmoqda. Bu esa o'z navbatida bog'da tashrif buyurganlarga dam olishlarida ajoyib ko'tarinkilik his-hayajon, yaxshi kayfiyat bag'ishlab, ularda o'simlik dunyosiga bo'lgan e'tiborni yanada oshiradi.

Shuning uchun ham aholi yashaydigan hududlar, shahar va qishloqlarning ko'rkam bo'lishida manzarali daraxtlarning o'rni beqiyosdir. Ushbu bog'-park hududlarini ko'kalamzorlashtirishda joyning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ushbu hududlarga mos keladigan manzarali daraxt va butalarni tanlash va ekish texnologiyalarini amaliy bilish zarur. Respublikamizda aholi turar joylarini, sanoat korxonalarini, sport inshootlari va o'quv maskanlari atrofini ko'kalamzorlashtirishda, ajoyib kompozitsiyaga ega bo'lgan, ko'rkam bog'-parklar va sayilgohlar barpo etishda manzarali daraxt va buta turlarini to'g'ri tanlash, ularni biologiyasini o'rganish, manzarali daraxtlarni hududlar bo'yicha tarqalishida va ularni ekish sxemalarini o'rganishda ushbu fanning ahamiyati kattadir. Biz hozirgi ko'kalamzorlashtirish jarayonini bilgan holda vatanimizning qadimiy shaharlaridagi bog'lari va rovtolaridagi ko'kalamzorlashtirish uslublarini bilib borishimiz kerak bo'ladi. Bizga ma'lumki, Markaziy Osiyoda bog'-xiyobon san'ati ko'p asrlik tarixga ega. Eramizdan 6-7 asr oldin Murg'ob, Zarafshon va Amudaryo vodiylari hududida So'g'diyona, Baqtriya va Xorazm kabi o'lkalar mavjud bo'lib, ular shimoliy-g'arbiy tomondan Hindiston, Eron, Qashg'ar, Janubiy Xitoy bilan qadimdan umumiy savdo yo'li bilan bog'lanib kelgan.

XIII asr o'rtalarida O'rta Osiyoga tashrif buyurgan Marko Polo shunday deb yozadi: "Samarqand g'aroyib bog'lari bilan o'rab olingan buyuk shahar, uni tekisliklar o'rab turadi, unda turli mevali o'simliklar o'sadi". Demak, ushbu qadimiy sayyohning fikr-mulohazalaridan ko'rinib turibdiki, bizning o'lkamizda qadimdan ham ulug'vor bog'larimiz va rovtolarimiz bo'lgan ekan.



1-rasm. Turli xil kompozitsiyalardagi bog‘-park elementlarining ko‘rinishi.

Tarixdan bizga ma’lumki, XII–XIII asrlarda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Xiva kabi tarixiy shaharlarimizda ajoyib va ko‘rkam ko‘rinishdagi bog‘larimiz bo‘lgan. Bu bog‘larda mahalliy daraxt va buta turlari bilan bir qatorda boshqa o‘zga yurtlardan – Hindiston, Eron, Misr, arab davlatlaridan o‘ta manzarali ko‘rinishdagi yaproq va nina bargli, shuningdek, mevali daraxt ko‘chatlari keltirilib dunyoga mashhur Samarqanddagi Bog‘i Shamol, Bog‘i Eram, Bog‘i Dilkusho, Bog‘izag‘on, Bog‘irayhon, Bog‘ibehisht, Bog‘ibaland va boshqa bir nechta nomdagi ko‘rkam bog‘lar, guzarlar va rovtlar barpo etilgan.

Bunday yam-yashil bog‘larda o‘simlik dunyosi bilan bir qatorda har xil turdagi sayroqi qushlar va noyob hayvonlar sayr etib bog‘lar husniga husn qo‘shib turgan. Ushbu bog‘larda suv havzalari, labi hovuzlar tashkil etilgan. Ularda ohular, fazanlar va tustovuqlar ko‘paytirilgan.



2-rasm.Bog‘-parklarda gullar kompozitsiyasining ko‘rinishi.

XV asrning oxiri XVI asrning boshlariga kelib, Samarqanddagi bog‘ va xiyobonlarda ekiladigan manzarali o‘simliklarning assortimenti ko‘payta boshladi. Bu esa qadimiy bog‘lar ko‘rinishining davomi bo‘lib kelgan. Demak, ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda manzarali bog‘lar barpo etish san’ati o‘zining tarixiy ildiziga ega ekan.

Darvesh Muhammad Tarahan bog‘ida sada qayrag‘och, sharq tuyasi, kumushrang teraklar, shuningdek, Jahonaro bog‘ida sarvlar, oqqarag‘ay, mojjevelnik turkumi, majnuntollar ekila boshlandi. XVIII asrga kelib O‘rta Osiyoning boshqa xorijiy mamlakatlar bilan savdo-sotiq bo‘yicha aloqasi rivojlanib, ko‘pchilik sohalarda yuksak natijalarga erishildi. Shu vaqtdan boshlab odamlar gavjum bo‘lgan hududlarda, tarixiy obidalar, masjidlar va rasadxonalar atrofida to‘rt burchagiga to‘rttadan manzarali daraxtlar o‘tqazilgan. Choyxonalar odatda sersoya daraxtlar ostida, jildirab oqib turgan

zilol suvli ariqlar va hovuzlar atrofida joylashtirilgan. O'sha vaqtdan boshlab ro'yi zamin sayqali bo'lgan Samarqandga tashrif buyurgan sayyohlar uning minorayi gumbazlarining arxitektura landshaftiga va o'simlik dunyosiga lol qolganlar. Bunday tarixiy bog'lar to'g'risida ma'lumotlar tarixchilar tomonidan tarixiy kitoblarda qayd etib qolingan.

Hozir ham yuqorida aytib o'tilgan shaharlarimizda xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan sayyohlar e'tiboriga tushadigan istirohat bog'lari, xiyobonlar, sayilgohlar, aholi yashash dahalari, sport inshootlari qad rostlagan va ular xalqimizni, yoshlarimizni ishdan bo'sh vaqtlarida dam olishlari, har xil madaniy tadbirlari, konsertlar, gullar va qushlar bayramlarini o'tkazish uchun tayyorlab qo'yilgan va yildan yilga yangi turdagi o'simlik dunyosi bilan boyitib boriladi.

Barcha shahar va qishloqlar, aholi yashash hududlari, sanoat korxonalari, o'quv maskanlari va shifoxonalar ular atrofida barpo etilgan yashil o'simlik dunyosi bilan yanada ko'rkam va manzarali ko'rinadi. Shuning uchun ham Mustaqil O'zbekiston respublikamizning bugungi hayotida ko'kalamzor hududlar barpo etish eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Bunday ulkan ishlar nafaqat Toshkent shahrida, yurtimizning barcha shahar va qishloqlarida amalga oshirilmoqda. Buning uchun joylarda bog'lar va sayilgohlar barpo etishda uning zamonaviy landshaft dizaynlarini talab etiladi.

Nazorat savollari:

1.Mamlakatimizda bog'-parklar qurilishi qachondan boshlangan?

2.Samarqand shahridagi tarixiy bog'lar to'g'risida ma'lumot bering.

Bog‘-park hududida yer maydonlarini tayyorlashda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda ishlash

Aholi yashash hududlari atrofida bog‘-parklar barpo etish og‘ir jarayon bo‘lib ishni bajarishda maxsus muhandislik bilimlari talab qilinadi. Ajratilgan yer maydonlarida muhandislik ishlari (yer maydonlari yuza qismini tayyorlash, ya’ni tekislash, uning yuza qismida suv yurish harakatini ta’minlash, yer osti kommunikatsion muhandislik tizimlarini olib o‘tish, suv hovuzchalarini qurish, ular qirg‘oqlarini mustahkamlash va ko‘chat ekish chuqurlarini tayyorlash) kabi ishlar to‘liq bajariladi. Bu vaqtda ishlar tizimini bajarishda texnika qoidalariga qattiq rioya qilgan holda ish hajmi bajarib boriladi. Shuningdek, yer maydonlarida planirovka ishlarini o‘tkazishda olib chiqiladigan chiqindilarga e’tibor beriladi. Ortiqcha tuproq uyumlari, mayda toshlar, shag‘al-qum qoldiqlar yer yuza qismining chuqur ko‘ringan joylariga tashlab tekislanadi. Yana bir bor ko‘zdan o‘tkazib o‘sisdan to‘xtagan daraxt va butalar, singan va kasallangan daraxtlar va manzara bera olmaydigan daraxtlar ham olib tashlanadi. Ushbu ishlarni bajarishda o‘tkir tig‘li ish qurollaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingan holda ishlar tizimi bajariladi. Chiqindi miqdori (100 m^2 maydon hisobidan) aniqlanib $0,5 \text{ m}^3$ gacha qurilish chiqindi miqdori bu eng kam miqdordagi chiqindilar; 1 m^3 gacha o‘rtacha va $1,5 \text{ m}^3$ esa kuchli chiqindi miqdori hisoblanadi. Bog‘-parklarda yuqoridagi ish turlarini bajarishda texnika vositalaridan foydalanishda barcha kommunikatsion ish turlari bo‘yicha mutaxassis xodimlar ishni bajarilishini nazorat qilib boradilar.

Chunki bog‘-parklarda yer maydonlarini tayyorlashda har bir ish turi bo‘yicha mutaxassislar yer osti va usti ish tizimlarini, elektr tarmoqlari bo‘yicha, santexnika ishlari, qurilish ishlari va eng asosiysi ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari bo‘yicha ishni bajarilishini kuzatib hisobga olib boradilar.



3-rasm. Bogʻ-park qurilishida suv havzalari atrofini mustahkamlash.



4-rasm. Ogʻir texnika vositalarida bogʻ-parklarda yer maydonlarini tayyorlash.

Yuqorida qayd etilgan ishlarni bajarish vaqtida texnika xavfsizligi qoidalariga qattiq rioya qilinadi.

Ko'kalamzorlashtirilgan joylar atrofida to'rt burchakli yo'lakchalar tashkil etish muhandislik tartib-qoidolari va usullariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Yuqorida bayon etilgan yer maydonlarining ko'rkam chiqishi asosan vertikal planirovkaga bog'liq holda bajariladi. Bu ishni bajarishda dam oluvchilarni, xizmatchilar va rahbariyat uchun ajratilgan inshootlarning joylanishi ham e'tiborga olinadi. Yer maydonlarini tayyorlashda iloji boricha ko'kalamzorlashtirilayotgan maydonning tuproqli qismida unchalik katta o'zgartirish qilmaslik kerak, ya'ni tuproqni ko'p olib ko'p kuch sarflamaslik zarur. Shuningdek yer maydonlarini tayyorlashda texnika vositalaridan uning turi bo'yicha foydalanishda uzoq muddatda ish turlarini bajarish bu juda katta sarf-xarajatlarga olib keladi.



5-rasm. Bog'-parklarda yo'laklar qurish.

Yer maydonlaridagi tuproqlarni tayyorlashda quyidagicha asosiy ishlar tartibiga rioya qilinishi zarur:

a) uchastkalarni tayyorlashda tuproq qatlami donador bo'lishi kerak, lekin tuproq loy bo'lib qotmagan bo'lishi lozim;

b) yer maydonlari asosiy yer yuza qismidan pastda qolib ketmasligi kerak, uning qalinligi 25-30 sm bo'lib, uni maxsus og'irlikdagi katkalarda yoki texnika vositalari buldozerlarda aylantirib bostirib qo'yish kerak. Agar yuqoridagi ishlar bajarilmasa maysazorlar yoki ko'chatlar sug'orilganda yer sathi pastga cho'kib maydonning ko'rinishi noto'g'ri bo'lib qoladi. Bundan ba'zan manzarali o'simliklar ham zararlanadi, natijada yashil o'simliklar o'zining shakli bo'yicha manzarasini yo'qotadi;

d) agar tuproq yuza qismida ohak, texnika vositalariga ishlatiladigan har xil moylar (bitum), asfaltli maydon yoki qurilishdan qolgan chiqindilar mavjud bo'lsa, bunday hudud foydalanishga tayyor emas. Ko'kalamzorlashtirilayotgan maydonlarda ekish ishlarini o'tkazishdan oldin har 100-500m² yer maydonidagi tuproq tarkibidan tahlil uchun olinib tekshirib ko'riladi. Agar zarur bo'lsa tuproq kerakli miqdorda organik va mineral o'g'itlar bilan boyitib boriladi. Yer maydonlari (yer yuza qismi) yengil usulda, nafis ko'rinishda tayyorlanadi. Vertikal planirovka asosida yer maydonlarida yangi relyef tashkil qilinadi, natijada har xil yog'inlardan tuproq tarkibini suv va shamol eroziyasidan himoyalab hosildor tuproqlarni saqlab qoladi. Yer osti sizot suvlarining ko'tarilib ketishi oldi olinadi. O'z o'rnida tashkil qilingan vertikal planirovka tashrif buyuruvchilarni bog'da bemalol dam olishlarida ko'tarinkilik ato etadi.

Vertikal planirovka bo'yicha ish hajmi va tavsifi ish joyining tabiiy joylanishiga, aholining joylanish hududiga bog'liq holda bajariladi. Yer maydonlari bo'yicha uchastkalarda sarf etilayotgan kuch boshqa og'ir bo'limlarda ham o'z o'rnida saflansa yuqori natijaga erishiladi. Pul-mablag' (smeta) esa tejab qolinadi.

Yer maydonlariga ish olib borishning texnik-iqtisodiy samardorligining ko'rsatkichlari quyidagichadir:

- yer maydonlarida unchalik katta o'zgarishlar qilmasdan kichik hajmda ish bajarish;

- yer maydonlaridagi tuproq tarkibini yuqori darajada o'zgarishlar qilmasdan saqlab qolish.

Bog'-parklarda vertikal planirovka loyihalashtirishning asosiy uslublari:

- vertikal planirovkaning sxemasi;

- loyihalashtirishning profilli uslubi;

- yer maydonlaridagi gorizontalli loyihalashtirishda nivelir syomka ishlarining natijalari (Buning natijasida yer osti va usti kommunikatsion tizimlari tashkillashtiriladi).

Bog'-park xo'jaligida vertikal planirovka ishlarini o'tkazishdan oldin albatta maxsus Bosh reja (генеральный план) tuzib olinadi. Ushbu reja asosida mukammal planirovka ishlari o'tkaziladi. Bunda: arxitektura fasad topshiriqlari va uning qarori; geodezik va gidrologik materiallar; yer osti kommunikatsion tizimlar va yer bo'yicha inshootlar; muhandislik qurilish ishlari tizimi va asosiy daraxt turlarining joylashtirish sxemasi va hokazolar e'tiborga olinadi.

Bog'-park xo'jaligini obodonlashtirishda 1:1000 yoki 1:500 masshtab qabul qilinadi. Asosiy planirovka ishlari yer maydonlarini har xil chiqindilardan yengil tozalab bo'lgandan so'ng maxsus kartografik-chizmachilik ishlari asosida bajariladi. Ushbu ishlarni bajarishda texnika vositalari: buldozer, greyderlar, ekskavatorlar, samosval mashinalar va har xil qo'l ish qurollaridan foydalanib boriladi.

Yuqorida qayd etilgan ish qurollaridan foydalanishda barcha mutaxassislar va ishchi xodimlar texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilishlari shart.

Shundan so'ng maydonlarda drenaj tizimi quriladi, unda yengilmo'rt qurilish mahsulotlari: graviy, sheben va yirik donador qum bo'laklaridan foydalaniladi. Bizga ma'lumki, ko'pchilik holatlarda ko'kalamzor hududlar barpo etishga ajratilgan yer maydonlar qurilish davom etayotgan yoki ancha toza bo'lgan maydonlardan

ajratiladi. Umuman olganda, bog‘-parklardagi ko‘kalamzorlash-tirish ishlari ish joyidagi qurilish ishlari bilan birgalikda olib boriladi. Chunki tekislash, tozalash ishlarini bajarishda o‘z vaqtida mavjud texnika vositalaridan, qo‘shimcha ish kuchlaridan foydalanadi. Bog‘-parklarda bunday vaqtda ko‘pchilik ish turlari hashar yo‘li bilan hal qilinsa ish tezlashadi va bu ish turining o‘zi ham qadrli bo‘ladi.



6-rasm. Parklarda kommunikatsion tizimlarni o‘rnatish.


Bog‘-parklarda yashil hududlar barpo etishdan oldin yer osti va usti suv zaxiralariga e‘tibor qaratish kerak bo‘ladi. Chunki suv miqdorining yer sathining yuza qismida yoki pastda ko‘p bo‘lishi ham o‘simlik dunyosi uchun salbiy natijalarga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham mutaxassislar tomonidan bog‘-parklar barpo qilish hududlarida bu ishlarga jiddiy e‘tibor qaratiladi.

Yer maydonlarida planirovka bo'yicha bajariladigan ishlardagi asosiy texnika vositalari

Maydonda bajariladigan ish turlari	Tuproq yuza qismining past-balandligi,m	Tuproqqa o'zgartirish bo'yicha masofa,m	Uchastkalar necha metr uzunlikkacha bo'ladi,m	Taklif etiladigan mashinalar	
				Asosiy	Qo'shimcha
Yer yuza qismining tuprog'ini kovlash va ko'tarish	Chegaralanmagan	500 gacha	Ish turining bajarilish sharoitiga qarab	Skreperlar, DZ-53 DZ-33 DZ-30	Buldozerlar: DZ-104 T-130 DET,DT-75
	Chegaralanmagan	100		Buldozerlar:DZ-104 T-130 DT-75	Avtogreyderlar DZ-6 3-58
		500 dan yuqori		Ekskavator: EO-3311 EO-5114 Samosval MAZ, KamAZ	Buldozer: DZ-37
Rezervdan tuproqni kesib olish	0,75 gacha	8-20 50 gacha	50-200 50-200	Buldozerlar:DZ-37 Skreperlar DZ-33	Avtogreyderlar:DZ-6 Buldozer: DT-75 Dz-37

Rejalashtirilgan ishlar				Avtogreyderlar:DZ-6 buldozerlar DZ-37 ekskavatorlar UDS-115 ish hajmini belgilangan nuqtagacha	
-------------------------	--	--	--	---	--

Ba'zan esa bizning sharoitlarda yer osti sizot suvlari yaqin bo'lgan maydonlarga to'g'ri kelib qoladi. Agar hududda yer osti sizot suvlari yaqin bo'lsa u mavjud tuproqlarning fizik va kimyoviy tarkibini buzadi, natijada o'simlik dunyosining o'sib-rivojlanishida yaxshi sharoit bo'lmaydi. Shuning uchun ham tuproq tarkibi me'yorida bo'lishida yer osti sizot suvlarining sathini e'tiborga olgan holda yer osti va usti drenaj tizimlari o'rnatiladi.



7-rasm. Bog'-parklarda drenaj tizimini qurish.



8-rasm.Ochiq drenaj tizimining ko‘rinishi.

Bog‘-parklarda ko‘pchilik holatlarda yopiq drenajlar barpo etiladi.

Drenaj–bu muhandislik inshootlari hisoblanib, ma’lum maydondagi yer osti sizot suvlarini chiqarib yuborish tizimi hisoblanadi.

Ushbu qurilish inshootini barpo etishda Rote formulasidan va o‘lchash-hisoblash ishlaridan foydalanamiz:

$$\ell=2(H-S)KIP;$$

ushbu formuladan:

l-drenajning asosiy kanali va suv yoʻnalishi ariqlari orasidagi masofa,m.

H-yer osti sizot suvlarining balandligi ,m.

S-yer osti sizot suvlari sathining maʼlum bir meʼyorda tushib turishi,m.

K-tuproqning filtrlanishi, m/sut.

P-tuproqda suvning qoldiq miqdorining koeffitsiyenti,m/sut.

Bogʻ va parklardagi oʻsimliklarni sugʻorish uchun sugʻorish shoxobchalari quriladi.



a) Sugʻorish yoʻlaklari



b) Sug'orish.

9-rasm.

Ushbu suv shoxobchalari asosiy suv kelish manbayi: tabiiy manbalarga, artezian quduqlariga va shaharni suv bilan ta'minlash nuqtalariga borib ulanadi, ya'ni bog'lanadi.

Suv olib kelish quvurlarining diametri suvni sarflash miqdoriga bog'liq, kanalizatsion tizimga qo'yishdan oldin ular izolatsiya materiallari: bitum, mastika (sariq quyuq yog') va asfaltli lok bilan yaxshilab ishlov beriladi. Quvurlarga bunday ishlov berish ularni har xil korroziyaga uchrashidan saqlaydi va ular uzoq xizmat qiladi. Quvurlarning ustki qismiga tuproq tortishdan oldin barcha qilingan ishlar bo'yicha akt (dalolatnoma) tuziladi.



10-rasm. Bog‘-parklarda ochiq drenajlar qurish.

Bog‘-parklarda asosiy texnik ta‘minotlardan biri bu vodoprovod, ya‘ni sun‘iy suv bilan ta‘minlash manbalari bo‘lib, o‘z o‘lchamlari bo‘yicha har xil funksiyalarni bajaradilar. Xo‘jalik uchun – bu butun yil mobaynida xonadonlarda, umumiy va kommunal-xizmat uylarida o‘sha ish olib boriladigan hududda, shuningdek, qishki o‘yingoh inshootlarida foydalaniladi; sug‘orish uchun–bu hududdagi daraxtzorlarni, bog‘-park yo‘lakchalarni va maydonlarni, ochiq sport maydonlarni sug‘orishda foydalaniladi. Vodoprovodlarni qurish uchun po‘latli, cho‘yan asbestli va temir-beton quvurlar ishlatiladi.

Ushbu xo‘jalik uchun zarur vodoprovodlar yer yuza qismining muzlash qatlamidan 0,2-0,3 m pastda tuproq ostiga ko‘mib ketiladi. Sug‘orish uchun ishlatiladigan vodoprovod quvurlari esa yer ostiga 25 dan 50 sm gacha chuqurlikda po‘lat va cho‘yan quvurlar o‘rnatib qo‘yib boriladi.

Barcha ikki xildagi vodoprovodlar maxsus loyiha asosida o‘rnatiladi va nazorat qilinadi. Ushbu vodoprovod yo‘li halqasimon tizimda bo‘lib, har qanday alohida ta‘mir etiladigan bo‘limida

suvni to'xtatib ish boshlash mumkin. Bundan maqsad suvni to'liq park bo'yicha to'xtamasdan o'sha har 300-500 m da o'rnatilgan mexanik ochib-yopuvchi qurilmalar suvni o'zi to'xtatib, ishni bir maromda borishini ta'minlaydi.



11-rasm.Bog'-parklarda yopiq drenajlar qurish.

Xo'jalik inshootlari va imoratlarida mavjud vodoprovodlar eng yaqin bo'lgan quduqlargacha mavjud bo'lgan ikki yopiq quvurga ulangan bo'ladi.Ko'rinib turadigan quduqlar har 100-120 m da, yong'in xavfi quduq gidranti bilan har 70-100 m da va sug'orish ishlari uchun kranlar har 40-50 m da o'rnatiladi.Qish faslida ochiq holda sug'orish shoxobchalari (vodoprovodlar) sovuq ta'sir etmasligi uchun maxsus betonli yoki yog'ochdan tayyorlangan qopqoq (korobka) bilan yopib qo'yiladi.

Yer osti (kanalizatsiya) suv harakati quvurlarini qurish. Yer osti suv harakati – bu shunday quvur va kanallar tizimidan iboratki, ular yer ostida ma'lum bir nishablikda bir-biriga bog'langan. Bu quvurlardan oqar suvlar, yomg'ir-qor suvlari va maxsus o'rnatilgan vodoprovod suvlari harakatlanadi.

Nazorat savollari:

- 1. Bog‘-park qurilishida yer maydonlari qanday tayyorlanadi?*
- 2. Drenaj tizimi haqida ma'lumot bering.*
- 3. Yer osti va usti kommunikatsion tizimlari nima?*
- 4. Bog‘-parklarda sug'orish tizimlari.*

Bog‘-park qurilishida yo‘l va maydonchalar barpo etish

Bog‘-park qurilish ishlarida asosiy konstruktiv elementlari – yo‘lakchalar qurish, maydonchalar barpo etishda, maysazorlar, gulzorlar barpo etish, shuningdek, manzarali daraxt va buta ko‘chatlarini o‘tqazishda quyidagicha asosiy tayyorgarlik ishlari bajariladi: ajratilgan yer maydonlarini joylarda o‘rganib chiqish, ko‘kalamzorlashtirilayotgan hududlarni himoyalash va hokazolar.

Bog‘-parklarda yo‘l va maydonchalar qurish asosan bog‘da harakatlanayotgan texnika vositalari va piyoda yuruvchi yo‘lovchilar, shuningdek, sayr-tomosha qiluvchilar uchun reja-lashtiriladi.

Ushbu yo‘l va yo‘lakchalar bog‘da tashrif buyurganlarni bog‘ning har bir elementiga yetib borish uchun zarur bo‘ladi. Bu bog‘ elementlari asosan, sayr etib yuruvchilar yo‘laklari, dam oluvchilarning tinch sokin manzillari bo‘lgan besedkalar, sport o‘yingohlari maydonchalari va hokazolar.

Yo‘l va yo‘lakchalar bog‘-parkning umumiy yer maydonining 5-25% ni tashkil etadi.

Bog‘da yo‘l va yo‘lakchalardan foydalanish bo‘yicha u besh sinfga bo‘linadi:

Birinchi sinf – bu asosiy magistral yo‘llar, yo‘lakchalar, alleyalar, ya’ni xiyobonlar bo‘lib, asosiy tashrif buyuruvchilar oqimi ushbu yo‘llarda harakatlanib sayr qilishadi. Bu yo‘llar eni 10-30 m gacha bo‘lib, ustki qismi qattiq holatda uzoq davom etadigan, chidamli konstruksiyadan iborat bo‘ladi.



12-rasm. Bog'ga tashrif buyuruvchilar uchun yo'laklar qurish.

Ikkinchi sinf – ikkinchi darajali yo'l va yo'lakchalardan iborat bo'lib, asosiy magistral yo'l bilan bog'ning boshqa elementlarini yo'l va yo'lakchalar orqali bog'laydi, shuningdek, tashrif buyuruvchilarni bemalol sayr qilishlariga sharoit yaratadi. Uning eni 4,5-10 m dan iborat bo'lib, yuza qismi qattiq to'rt burchakli plitalardan iborat bo'ladi.

Uchinchi sinf – eni 2,5-5 m dan iborat qo'shimcha yo'llardan tashkil topgan.

To'rtinchi sinf – bir va ikkita tashrif buyuruvchining harakatlanishi uchun rejalashtirilgan. Bu yo'lning eni 0,75-1,5 m gacha, yumshoq va har xil rangdagi tuproqli va qumli.

Beshinchi sinf – xo'jalik ahamiyatidagi yo'llar bo'lib, qurilish materiallari, pardozlash va savdo-sotiq ishlarini o'tkazishga uchun rejalashtirilgan.

Yirik bog'-park xo'jaliklari uchun yuqoridagi beshta yo'l va yo'lakchalarning barchasi qurib foydalaniladi. Bulvarlar-

xiyobonlar va unchalik katta bo‘lmagan bog‘ xo‘jaliklari uchun birinchi uchta yo‘l sinfidan foydalaniladi.

Yo‘llarning yuza qismi asfalt, beton va beton plitalardan iborat bo‘lsa, yuza qismining qiyaligi $i=0,015-0,002$ dan iborat bo‘ladi. Yo‘lning yuza qismining qiyaligi maxsus loyihalarda ko‘rsatiladi va yo‘l qirg‘og‘ida ariqchalar barpo etiladi.



13-rasm. Bog‘lardagi manzarali yo‘laklarning ko‘rinishi.

Bog‘-park xo‘jaliklarida maxsus maydonchalar to‘rtta kategoriyaga bo‘linadi:

1) Tashrif buyuruvchilarning dam olishlari uchun maydonchalar bo‘lib, bunda kattalar uchun alohida dam olish joyi, bu yerda bolalar uchun ham attraksionlar o‘rnatiladi;

2) Sport maydonchalari – bu joyda tashrif buyuruvchilar uchun voleybol, stol tennisi va shaxmat-shashka o‘ynovchilar uchun maxsus maydonchalar tashkil etiladi;

3) Xo‘jalik ahamiyatidagi maydonchalar – bu maydonchalarda ko‘chma do‘konlar, gazeta va jurnal do‘koni, qurilish uchun zarur

bo'lgan ish qurollari saqlanadigan omborxonalar va hokazolar bo'ladi;

4) Pavilionli maydonlar va kapital qurilish uchun inshootlar.

Barcha maydonchalar quruq va ozgina bo'lsa-da balandroq yer maydonlarida tashkil etiladi. Chunki botiq yerlarda suv yo'llanadi. Bu esa yog'in-sochinli kunlarda dam oluvchilarning kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bog'-parklarda yo'l va maydonchalar qurishda ba'zan tabiiy holdagi tosh va qumlardan, shuningdek, maxsus sun'iy holatda tayyorlangan har xil mahalliy ishlab chiqarish sanoatining chiqindilaridan tayyorlangan qattiq materiallardan ham foydalaniladi. Yo'l va maydonchalar barpo qilishda foydalaniladigan materiallarning fizik-mexanik tarkibiga albatta e'tibor qaratiladi.

Tog' sharoitidan olingan va yo'l qurilishida foydalaniladigan mahsulotlar o'zining maxsus mexanik qattiqligiga ega bo'ladi va u qattiqligi bo'yicha besh sinfga bo'linadi:



14-rasm. Marmar toshlardan parklarda tog'li kompozitsiyalar yaratish.

qattiq va juda qattiq material(1-2 sinflarga taalluqli)lar – kvarsitlar, granit, bazalt, marmarlar va dolomitlar.

Uchinchi sinfga oid – bular g‘o‘shakli qattik toshlar va shebenlar;

To‘rtinchi sinfga oid – yumshoq dolomitlar, ohaksimon mayda toshlar;

Beshinchi sinfga oidi esa – juda mayda toshchalar, har xil qumlar, bulardan asosiy materiallarni bir-biriga bog‘lash uchun yopishqoq mahsulot sifatida foydalaniladi.

Yuqorida nomlari keltirilgan tabiiy tog‘ mahsulotlari baland tog‘lardan toshlarni mexanik ishlov berish yo‘li bilan olinadi va ularga maxsus tosh yo‘nish sexlaridagi dastgohlarda yo‘nilib-tarashlanib, har xil shakllar beriladi. Ushbu tog‘ mahsulotlari kelib chuqishi bo‘yicha ikkiga bo‘linadi, ya‘ni yer qa‘rida ko‘p yillar mobaynida yig‘ilib magmalar natijasida paydo bo‘lgan mahsulotlar yoki har xil tashqi ta’sirlar: suv, shamol, muzlar ta’sirida toshlarning parchalanishidan paydo bo‘lgan mahsulotlar.

Birinchi holatda kristallashgan mahsulotlar, ya‘ni yaltirab turuvchi mahsulotlar: granit, sienit, diorit, liparit, bazalt va diabazlar olinadi.

Ikkinchi holatda esa graviy, sheben va qumlar, dolomit, brekchiyalar.

Toshli materiallarning quyidagicha turlari berilgan:

Toshlishashka, bruschatka(10sm),yo‘lchetlarida o‘rnatiladigan bordyurli toshlar (biror-bir geometrik ko‘rinishda 70 sm dan katta) yoki (10x20; 15x30; 20x30 o‘lchamda) va graviy, qum turlaridan va sheben turlaridan iborat bo‘ladi.Qattiqligi bo‘yicha shebenning 7 ta markasi mavjud: M-1200; M-1000; M-800; M-600; M-400; M-300 va M-200. Ushbu markalardan boshlang‘ich to‘rttasi magistral va alleya, ya‘ni xiyobon yo‘laklarida qo‘llaniladi.

Yo‘l qurilishida foydalaniladigin sun‘iy inert materiallar – bular ishlab chiqarish sanoati chiqindilaridan tayyorlangan domenli va qozonxona shlakobloklar, cherepitsalar va maxsus tayyorlanilgan g‘ishtlar, temir-betonli plitalar va porebrikalar, ya‘ni betida naqsh

o'yilgan yengilroq plitalar. Shuningdek, bog'-parklarda yo'l va maydonchalar qurishda parkning madaniy dam olish maskanlarida; maxsus ornamentli g'ishtlar, plitalar, mayda, har xil ko'rinishdagi rang-barang toshchalar, bitum, asfalt, beton, opilkalar va paxta sheluxasi ishlatiladi (izolatsion tizimda).

Yo'l va maydonchalar barpo etish vaqtida loyihada foydalanilayotgan materiallarning yuza qismini har xil tashqi ta'sirga, ishqalanishga va atmosfera ob-havo ta'siri e'tiborga olinadi. Bog'dagi tuproqli yo'llar vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Ular yengil har xil aralashmalardan iborat bo'ladi. Bular asosan so'qmoq yo'l hisoblanadi.

Sheben yotqizilgan yo'laklar uzluksiz tashrif buyuruvchilar-ning qatnoviga rejalashtirilgan bo'ladi va uning ostida yotqizilgan qum 6t li katka bilan presslanib chiqiladi. Shebenning yotqizilish qalinligi 5 sm gacha bo'ladi. Agar tuproqli bo'lsa u holda 14 sm gacha sheben yotqiziladi (sheben markasi M-200).



15-rasm. Asfaltbetonli bog'-park yo'llari.

Asfaltbetonli yuzadan iborat bo'lgan yo'llar texnika vositalari, velosipedlar va rolik-konkilarda yurishga rejalashtirilgan bo'ladi. Birinchi marotaba 6 t va ikkinchi marotaba 10 t li katkalar yordamida yo'lni tashkil etadigan mahsulotlari qotirilib presslanadi.

Har xil materiallardan tayyorlangan to'rtburchakli, muntazam ko'pburchakli, dumaloq plitalardan iborat yo'llar ham barpo qilinadi. Plitkalar o'lchami 25x25 sm dan 90x90 sm gacha bo'ladi. Betonli plitkalar qalinligi 6x6 sm va maxsus standart asosida esa 20x20 sm va qalinligi 3,5-5 sm gacha bo'ladi. Shuningdek, bog'larda, sayilgohlarda keramik plitkalar-bruschatkalar (o'lchami 20x20 sm, qalinligi 1,5 sm) dan ham foydalaniladi.

Ushbu barpo etilgan yo'llar va maydonchalar o'z vaqtida nazorat qilinib boriladi. Har yili qisman pardoqlash ishlari o'tkaziladi. Mukammal pardoqlashga esa har 10 yilda, favqulodda vaziyatlarda esa 5 yilda ruxsat beriladi.

Nazorat savollari:

- 1. Yo'l va maydonchalar qurish usullari.*
- 2. Bog'-park yo'llarining turlari.*
- 3. Yo'l qurilishida foydalaniladigan qurilish materiallari.*

Manzarali o'simliklar yordamida bog'-parklarda turli shakllarda kompozitsiyalar yaratish

Bog'-parklar barpo etishning eng muhim omillaridan biri bu ko'kalamzor hududlar barpo etishdir. Bu ishlar bog'-parklar barpo qilishda alohida e'tibor bilan maxsus tuzilgan Dendroreja asosida olib boriladi. Har xil turdagi manzarali o'simliklardan bog'da tashrif buyuruvchilar nigohida turli xil ko'rinishdagi




kompozitsiyalar yaratiladi. Bular yaproq va ignabargli daraxtlarni qatorda olib, soliter usulida yoki yaproq va ignabargli daraxtlarni guruhga olib, yana bir kompozitsiya yaratish – bu doim yashil o‘simliklardan foydalanib, klumbalar va rabatkalar tuzish va ularda yashil, shuningdek, butasimon o‘simliklardan foydalanish, ularning barchasi bog‘-parklarda nafis ko‘rinishdagi jonli landshaftlar, kompozitsiyalar yaratadi. Ba‘zan yashil o‘simlik dunyosidan hayvonot va qushlar olamining qandaydir jozibador ramziy ko‘rinishi yaratiladi.

Yuqoridagi ishlarni o‘z o‘rnida sifatli bajarishda eng asosiy ishlardan biri manzarali o‘simliklarni vaqtida, kechiktirmasdan bog‘- parklarda rejalashtirilgan joylarda ekib borish zarur.

Quyidagi suratda shoyi akas va kumushsimon qora qarag‘ayning o‘zaro uyg‘unlashgan holdagi kompozitsiyasi ko‘rsatilgan.



16-rasm. Yaproq va ignabargli daraxtlarning o‘zaro uyg‘unlashgan ko‘rinishi.



17-rasm. Yaproq va ignabargli daraxtlarni ekish usullarini chizmada tasvirlash.

Daraxt va buta ko'chatlarini ekishning eng asosiy vaqti bu bahor va kuz fasllaridir. Bu vaqtda daraxt ko'chatlari fiziologik o'sish davridan anchagina to'xtagan bo'ladi. Erta bahorda ko'chatlarni ekish ba'zi daraxt turlari uchun yaxshi natija beradi. Chunki bu vaqtda ko'chatlar biologik jihatdan o'sishga tayyor turadi, tezda ildiz oladi. Shuning uchun ham ekilgandan so'ng tez kurtak otib o'sib boradi va atrof-muhitga ajoyib kompozitsiya namoyon qiladi.

Bular asosan o'ta ko'rkam ko'rinishdagi yaproq bargli manzarali daraxtlar : kashtan , sada qayrag'och, yapon saforasi, yirik bargli jo'ka,lola daraxti, piramidasimon eman, terak va boshqalar. Ko'pchilik manzarali daraxtlarni iloji boricha ildiz komi bilan ekish yaxshi natija beradi va tez o'sib rivojlanadi ,tezda manzara beradi.Agar yaproq bargli daraxtlarni biz barglarining tuzilishi va rangi bo'yicha bog'-park inshootlari atrofida simmetrik joylashtirsak, yanada ajoyib kompozitsiya namoyon qiladi.



18-rasm.Yaproq bargli daraxtlar, butasimon o'simliklar va gulzorlardan iborat nafis kompozitsiyalar.

Bog'-parklarda o'ta manzarali arxitektura landshaftiga ega bo'lgan zinapoyalar barpo etilgandan so'ng, ular atrofida yanada ko'rkam bo'lishida zinapoyalar hududida har xil turdagi yaproq va ignabargli daraxt va buta turlaridan:soxta kashtan,sada qayrag'och,pisarda olxo'risi,yapon behisi ,samshit,gul turlaridan:sonya, burgon, qora marvarid, gerenada va boshqa o'simlik turlari joylashtirilib boriladi.

Bog'-parklarda ekish ishlari navbatma-navbat olib boriladi: ko'chatxonadan ko'chatlarni talabga muvofiq kovlab tayyorlash, ularni taxlash, ekish uchun rejalashtirilgan manzilga yetkazish va hokazo. So'ng ekish uchun rejalashtirilgan maydonlarni tayyorlash, ularda tekislash, tozalash ishlarini o'tkazish, ekish chuqurchalarini tayyorlash, ekish joyidagi tuproqni tayyorlash va go'ng, mineral o'g'itlar tayyorlab qo'yishdan iboratdir.

Tashib keltirilgan ko'chatlarni ekishdan oldin ekish maydoni yaxshilab bo'lib chiqiladi, ya'ni qayerga va necha metrda ko'chat ekilishi haqida, ya'ni ko'chatlarni ekish sxemalari ko'rsatib boriladi. Suv havzalari atrofida doimo mikroiklim namoyon bo'lishida atrofga sersoya hosil qiluvchi, shoxlari bir xilda osilib turuvchi manzarali yashil o'simliklar joylashtiriladi.

Suv havzalari atrofida o'simlik turlari joylashtirilib bo'lgandan so'ng, ular atrofida har xil ko'rinishdagi ornamentga ega bo'lgan dam olish joylari va shiypunchalar o'rnatiladi.

Bu joylarda xalqimiz vakillari ishdan bo'sh vaqtlarida bermalol dam oladilar, kitoblar mutoola qiladilar va hokazo.

Suv havzalari atrofida majnuntollar, oq akasiya, manzarali butasimonlar oddiy nastarin va archa, kashtan va boshqa turlar joylashtiriladi.

Bog'-parklarda ko'chatlarni ekishni boshlashdan oldin yer osti kommunikatsion tizimlarini o'tkazib olish zarur. Chunki ko'chatni ekib bo'lgandan so'ng bu ishlarni bajarish juda qiyin. Ushbu ishlar maxsus tuzilgan Bosh reja asosida amalga oshiriladi. So'ng maxsus dalolatnoma asosida ekish ishlarini boshlashga ruxsat olinadi.

Ekish chuqurchalari ko'chat ekishdan 7-10 kun oldin tayyorlab qo'yilishi kerak, bu vaqt chuqur ichi xoloz bo'lib kislorod almashish jarayoni kechadi. Ko'chat ekish chuqurligi 60x60x60 sm yoki 70x70x70 sm da tayyorlanadi. Ekilgan ko'chatning ildizi yer betiga yaqin bo'lishi kerak. Agar ko'chat ildizi ochiq bo'lsa uni tezda ekish kerak. Ildiz qismida yaralangan, singan bo'laklari bo'lsa uni tezda o'tkir qaychi bilan kesib olib tashlanadi. Yirik o'lchamdagi manzarali daraxtlar bog'-parklarda maxsus usulda ildiz komi bilan ko'chirib ekiladi va ular tezda o'z ko'rkini namoyish qiladi. Tez barg yoyadi, tez gullaydi va tezda sersoya bo'ladi.



19-rasm. Suv havzalari atrofida manzarali o'simlik ko'chatlarini joylashtirish.



20-rasm. Maysazor va yo‘laklar atrofida yashil kompozitsiyalar barpo qilish.

Chunki yosh ko‘chatlarga nisbatan katta yoshdagi daraxt ko‘chatlarining tutib ketishi ancha mushkulroq. Ko‘chatxonadan kovlanayotgan ko‘chatlarni ildiz tuprog‘i bilan olishda o‘zining maxsus o‘lchamiga ega. Uning o‘lchami daraxt turiga, ildiz tizimining tuzilishiga va ko‘chirish vaqtiga ham bog‘liq. Shuningdek, daraxtning 1,3 metr balandlikdagi diametriga ham bog‘liq. Diametri 4,5 sm dan boshlab ularning komi 1,0x1,0x6 m dan iborat bo‘ladi. Ko‘chatlarni ildizi bilan ko‘chirishda uning ildiz tizimi maxsus yashiklarda, selofanli qoplarda tezda olib ko‘chirib ekiladi. Chunki o‘z vaqtida parvarishlash ishlarini olib borib, katta yoshdagi ko‘chatlarni saqlab qolsak, ular tezda ko‘zga tashlanadi va tezda ko‘rkam kompozitsiya bera oladi. Manzarali ko‘chatlarni turlari bo‘yicha ekishda qaysi ekish sxemasida va qanday o‘simlik turi bilan ekib borilishi ko‘rsatiladi. Masalan: guruhga olib, qatarga olib yoki biror-bir kompozitsiya shakllantirishda. Lekin bog‘-parklardami yoki xiyobonlardami doimo manzarali o‘simlik dunyosini parvarishlab borish kerak bo‘ladi. Manzarali

daraxtzorlarning yoshiga qarab quyidagicha parvarishlash, kesish ishlarining turlari mavjud: daraxtzorlar ichiga yorug‘lik tushirish, yosh daraxtlarda tozalash ishlarini o‘tkazish, daraxtlarni yaxshi o‘sib, rivojlanib shaklga ega bo‘lishidagi kesishlar.



21-rasm. Parvarishlangan daraxtzorlardagi so‘lim xiyobon.

Bog‘-parklarda manzarali o‘simliklarda ularni manzarali, sanitar-gigiyenik, estetik va boshqa bir nechta foydali xususiyatlarini kuchaytirish maqsadida:

- daraxtzorlarni turlari bo‘yicha tarkibini yaxshilash;
- daraxtzorlarning chidamlilik va sifatini oshirish;
- daraxtzorlarning tozalik jihatidan xususiyatini oshirish;
- daraxtzorlarning hosildorlik xususiyatlarini oshirish;
- daraxtzorlarning manzarali xususiyatini oshirish.

Yorug‘lik tushirishdan asosiy maqsad daraxtzorlar tarkibini yaxshilash va asosiy daraxt turlari rivojlanishiga sharoit yaratishdir.

Daraxtzorlarda tozalash ishlarini o'tkazish – bu asosiy daraxt turlari ma'lum maydonda joylashishi va o'sib-rivojlanishiga sharoit yaratish, demakdir.

Daraxtzorlarda kesish ishlarini o'tkazish esa daraxt tanasining to'g'ri rivojlanishi qulay sharoit barpo qilish va eng yaxshi daraxtlar shoxlarining o'sib-rivojlanishida asos bo'ladi. Natijada manzarali daraxtlar ko'rkam ko'rinishga kelib qoladi.



22-rasm. Bog'-parklarda tog'li sharsharalar kompozitsiyasining ko'rinishi.

Biz bog'-parklarda har xil ko'rinishdagi kompozitsiyalarni joyiga qarab yaratishimiz mumkin. Masalan, parklarda tog'li kompozitsiyalarni suvlar atrofida yoki ochiq joyda barpo etish og'ir jarayon bo'lib, kompozitsiya barpo qilishdagi ko'pchilik materiallar boshqa joylardan olib kelinadi. Masalan har xil o'lchamdagi va ko'rinishdagi marmar yoki daryo toshlarining bo'laklari, qiyosimon o'simliklar va hokazolar. Bunday og'ir va nozik ishlarni bajarishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda ish jarayoni bajariladi. Ajoyib landshaftga ega bo'lgan tog'li

kompozitsiyalarni barpo qilishda ishni shunday bajarish kerakki, barpo qilingan kompozitsion hudud bog‘-parklarda uzoq yillar xizmat qilishi kerak. Shuning uchun ham bunday kompozitsiyalar yaratishda oldindan uning sxemasi chizib tayyorlanadi.

Istirohat bog‘larida manzarali daraxtzorlar chegaralarini shakllantirish, yosh daraxtlarda siyraklashtirish ishlarini olib borish bog‘larda tashrif buyuruvchilar ko‘z nigohida daraxtlarni uzoqdan tana ko‘rinishlarini jozibador qilib ko‘rsatadi.



23-rasm. Bog‘ga kiraverishdagi kompozitsiyalar.

Daraxtzorlar tarkibini shakllantirishda ularni asosiy va yordamchi daraxt turlariga ajratish. Bu holda daraxtzorning asosiy turi daraxtlarning 50-70 % idan kam bo‘lmasligi kerak. Ularga asosiy daraxt turlari va ularni manzarali estetik xususiyatga ega bo‘lgan ushbu sharoitga o‘sib-rivojlangan turlari kiradi.



24-rasm. Bog‘-parklarda manzarali tog‘li ko‘rinishlar kompozitsiyasini yaratish.

Manzarali daraxtzorlar chegaralarini shakllantirishda yosh daraxtlarda siyraklashtirish ishlarini olib borish kerak. Ularga asosiy daraxt turlari va estetik xususiyatga ega bo‘lgan ushbu sharoitga o‘sib-rivojlangan turlari kiradi. Ignabargli daraxt turlari ichida asosiy turi – bular qora qarag‘ay, mojevelnik sinfi (archalar); yaproq bargli daraxt turlaridan: yong‘oq, chinor, eman, qayin, qayrag‘och va boshqalar, yordamchi turlarga do‘lana, chetan (ryabina), oq akasiya, oq tut va boshqalar.

Daraxtzorlarni shakllantirishda daraxtlarning quyidagi sinflari qo‘llaniladi: yaxshi daraxtlarga asosiy turlar, I-II sinfga mos bo‘lgani, bularga to‘g‘ri o‘sib-rivojlangan manzarali daraxt turlari kiradi. Bog‘-parklardagi manzarali yaproq va ignabargli daraxt turlariga o‘z vaqtida parvarishlash ishlari olib borilganda ular tez o‘sib-rivojlanadi va tezda manzarali xususiyatlarini namoyon

qiladi. Yordamchi daraxt turlariga baquvvat, o‘zining o‘sib-rivojlanishi bilan asosiy daraxt turining o‘shiga yordam beruvchi manzarali va chiroyli landshaft hosil qiluvchi turlari kiradi.

Keraksiz daraxtlarga qurigan, kasallangan va zararkunandalar bilan zararlangan asosiy daraxt turining o‘shiga xalaqit beruvchi, tanasi xunuk bo‘lgan va landshaft tarkibini buzuvchilar kiradi. Ushbu daraxtlar o‘z vaqtida kesib olib tashlanishi zarur. Chunki bog‘-parklarda bunday noo‘xshov daraxt va butalar mavjud bo‘lsa, ular park hududidagi manzarali ko‘rinishni buzib ko‘rsatadi.

Shahar o‘rmonlarida kesishning asosiy maqsadi yuqori manzara beruvchi va sanitar ahamiyatga ega bo‘lgan daraxt turlarini shakllantirishdan iboratdir. Bog‘-parklarda yoritish uchun daraxtlarning shox-shabbasi bir-biriga yaqinlashganda va o‘shidan orqada qolganda kesiladi. O‘shidan qolganlari, sovuqdan va tashqi ta’sirdan zararlanganlari olib tashlanadi. Doimo istirohat bog‘larida manzarali o‘simliklar o‘rtasida monitoring olib borib ularni shakllantirish kerak bo‘ladi.



Bog‘-parklarda yana bir ajoyib ko‘rinishdagi kompozitsiyalardan biri bu doim yashil o‘simlik turlaridan har xil ko‘rinishdagi

hayvonlar, qushlar va qandaydir gullar shakllarini yaratishdan iboratdir. Bunday manzarali o'simliklarga doim yashil sarv, shamshod, sharq va shakldosh tuyya, oddiy va virgin archasi, sabina archasi, yapon normushki va kolonovid tuyyalarini olishimiz mumkin.

Bu o'simliklarda yoshligidanoq rejalashtirilgan biror-bir ramziy ko'rinish shakllantirib boriladi. Natijada bog'-parklarga tashrif buyurganlar o'simliklar misolida xuddi biror-bir jonli timsol turganligini tasavvur qiladilar.

Bugungi bog'-parklarimizda turli xil manzarali daraxt turlaridan yashil hududlar barpo etilganligidan, ushbu hududlarda o'simlik olamining o'sib rivojlanishi bilan bir qatorda bog'larda ba'zi bir noyob hayvonot va qushlar turining ko'payishiga ham sharoit paydo bo'la boshladi. Natijada o'simlik va hayvonot olami orasidagi o'zaro bog'langan bunday jozibador muhit bog'-parklarga tashrif buyurganlarga yanada yaxshi kayfiyat va o'simlik va hayvonot olamiga bo'lgan e'tiborni oshirib boradi.



25-rasm. Doim yashil o'simlik turlaridan hayvonot olamining ramziy ko'rinishlarni yaratish.



26-rasm. Bog‘-parklarda sayr qiluvchi hayvonot olami.

Shuning bilan bir qatorda shahar istirohat bog‘larida tashrif buyuruvchilar ko‘z nigohida ajoyib tasavvurga ega bo‘lishlari bog‘larda bolalarni hayratga soladigan hayvonot olamini ko‘paytirib borishni taqozo etadi. Masalan, yuqoridagi manzarali suratda jajji olmaxonni bog‘dagi qarag‘ay daraxtida sayr qilib yurganligi tasvirlangan. Bunday manzarani ko‘rgan bolalarning tabiatga, uning hayvonot va o‘simlik olamiga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi va ular uni asrab-avaylashga harakat qiladilar.

Yoki navbatdagi sher tasviri yasalgan kompozitsion ko‘rinishda bog‘da tashrif buyurganlar ko‘z nigohida yashil maysa va qiyosimon o‘simliklardan o‘sha hammani hayratga solgan sherning qiyofasi gavdalanadi. Bu ham, o‘z navbatida, jonsiz ko‘rinishdagi qiyofani jonli o‘simlik turidan tasvirlashdan iboratdir.



27-rasm. Sher qiyofasini o‘t-o‘simliklar orqali tasvirlash.

Nazorat savollari:

- 1. Bog‘-park kompozitsiyalarining elementlari nima?*
- 2. Bog‘da tog‘li sharsharalar qurish.*
- 3..Hayvonot olami ramziy ko‘rinishlarini yaratishda o‘simlik turlaridan foydalanish.*

Bog'-park inshootlari va bog'larni zarur bo'lgan asbob-uskunalar – inventarlar bilan ta'minlash

Bog'-park inshootlari va undagi mavjud bo'lgan inventarlar bog'ga tashrif buyurganlar uchun o'zining tashqi ko'rinishi, estetikasi, landshafti va ko'rkamligi bilan zavq-shavq baxsh etishi kerak. Ular shakli va konstruksiyasi hamda atrofida barpo etilgan ko'kalamzorlashtirilgan hududi bilan yanada uyg'unlashgan bo'lishi zarur. Ular shartli ko'rinishda quyidagicha turlarga bo'linadi:

1. Kichik arxitektura ko'rinishidagi shakli – bular bog'da barpo etilgan muhandislik inshootlari bo'lib, ular o'zining estetik, badiiy pardozi va bezagi bilan tashrif buyurganlarga xizmat etadi.

2. Hidro va suv inshootlari – bular suv yo'llaridan kompozitsion-landshaft ko'rinishidagi fasadi bo'lib, o'z vaqtida ham ajoyib salqinlik(fontanlar, hovuzlar) namoyon qiladi.

3. Bog'ning badiiy estetik ko'rinishini namoyon qiladigan elementlari – asbob-uskunalaridir. Agar bular ornamentli chiroyli qilib har xil yog'och turlari va temir simlardan yasalgan bo'lsa, tashrif buyuruvchilarga estetik zavq bag'ishlaydi.

Yuqorida tartiblari ko'rsatilgan qurilish inshootlari va zarur bo'lgan inventarlar tarkibi, miqdori bog'-park xo'jaligining maydoniga, rejalashtirilgan loyihasiga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, yirik shaharlardagi bog' sayilgohlarda yuqorida nomlari qayd etilgan inshootlar va asbob-uskunalarining barchasi mavjud bo'lishi kerak. Agar loyiha qishloq va ovullarga rejalashtirilgan bo'lsa, unda inshootlar va asbob-uskunalar oddiyroq ko'rinishda bo'ladi. Agar park o'rmonli hududlarda bo'lsa, u holda ko'proq inshootlar va inventarlar har xil yog'och turlaridan ishlab chiqilib o'rnatiladi va barpo etiladi.

Muhandislik inshootlari. Bog'-park zinapoyalari – bular eni 10 m dan yuqori bo'lgan bog'dagi asosiy alleylar va magistral yo'lni tutashtiruvchi atrofida gulzorlar va yorug'lik beruvchi

fonarlar oʻrnatilgan maskanlarda barpo etiladi; ikkinchi darajali zinapoyalar eni 2,5-10 m gacha boʻlgan alleya(xiyobon)lar va yoʻllarda oʻrnatiladi; soʻqmoqli, yaʼni 2,5 m boʻlgan yoʻllarda baʼzan oddiy toshli zinapoyalar barpo qilib ham shakllantiriladi.



28-rasm.Parklarda favvoralar.

Park zinapoyalari qiyaligi 1:3, eng kichik eni 40 sm, balandigi 8-12 yoki 15 sm dan iborat boʻladi. Zinapoyalar eni mahalliy sharoitga bogʻliq holda loyiha muallifining fikr-mulohazasi asosida 75 sm dan kam boʻlmasligi zarur (bir tashrif buyuruvchining bemaolol aylanib yurishi va oʻtishi uchun eʼtiborga olinadi).

Bunday bog‘-park zinapoyalari tashrif buyuruvchilarga komfort-estetika bag‘ishlaydi.



29-rasm. Bog‘larda kiraverishlar landshafti.

Zinapoyalar uchun qurilish materiallari bo‘lib tog‘ toshlari va maxsus aralashmalar asosida qoliplarda quyilib ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari xizmat qiladi. Shahar atrofidagi bog‘ va sayilgohlarda ko‘pincha g‘ishtli va yog‘ochli zinapoyalar o‘rnatiladi. Yolg‘iz oyoq so‘qmoq yo‘llarda esa tabiiy toshlardan yoki yo‘g‘on yog‘ochlarning ko‘ndalang kesim yuzalaridan tayyorlangan materiallardan foydalaniladi. Buning uchun 8-10 sm zinapoyalar ostidagi qum-sheben yotqiziqlari obdon mustahkamlanadi.

Shuningdek, bog‘-park xo‘jaligida uning chetki yer maydonlari bilan chegaradosh qismi toshli va temirbetonli devorlar bilan

mustahkamlanadi. Shunda toshli devorlar balandligi 4 m gacha, temirbetonli devorlar esa 6 m ga boradi.

Bog'-parklarda tashrif buruvchilarning ruxsatsiz, o'ylamasdan gulzorlar, maysazorlar va suv havzalariga o'tib ularni payhon qilmasliklari uchun ular atrofida maxsus himoya devorlari ornamentli ko'rinishda barpo etiladi. Ushbu o'rama devorlar balandligi bo'yicha quyidagicha tartibda ishlab chiqiladi:

1) baland devorlar – bular bog'-parklar, hayvonot bog'lari, botanika bog'lari, o'yingohlar atrofida, shuningdek, ko'rgazmali maydonlar atrofida 3-7 m balandlikkacha tashkil etiladi.



30-rasm. Maysazorlar va shiyponchalarni jonli devorlar bilan himoyalash.

2) o'rtacha himoya devorlari – bulvar, xiyobonlar, skverlar, attraksion o'yingohlari va tennis kortlari atrofida 1-1,5 m gacha tashkillashtiriladi.

3) Past bo'yli himoya devorlari – bular asosan bog'-parklardagi gulzorlar, maysazorlar, rabatkalar va suv havzalari atrofida 0,5-0,8 m balandlikda barpo etiladi.

Ushbu himoya devorlari uzoq muddatlarga rejalashirilgan bo'lib, yuqori sifatli mustahkam materiallardan; tabiiy toshlardan, temir setkali materiallardan ornamentli, dekorativ ko'rinishda barpo etiladi.

Yuqoridagi tashkiliy ishlar bilan bir qatorda bog'-park xo'jaliklaridagi suv havzalarida manzarali ko'rinishdagi ko'priklar barpo etiladi. Ushbu ko'priklar ochiq yoki yopiq ko'rinishda bo'ladi. Ochiq ko'priklar eni enli bo'lgan bog'dagi suv havzalarida barpo etiladi.



31-rasm. Bog'-parklarda manzarali ko'priklar qurish.

Ular yog'ochli manzarali ko'rinishda yoki temirbetonli chetlari temir panjara-to'rli ornamentli ko'rinishda yasaladi va suv hav-

zalarida piyodalar yurishi uchun o'rnatiladi. Bunda maxsus loyihalardan foydalaniladi. Yopiq ko'prik vositasida quvurlardan, betonli ariqlardan va asbestli quvurlardan foydalaniladi. Shuningdek, bog'-park xo'jaligida tashrif buyuruvchilarning bemalol dam olishlari uchun aylana, ko'pburchak, alohida manzarali, nafis ko'rinishdagi har xil simlar, armaturalar yoki g'ishtli, toshli materiallardan dam olish burchaklari tashkil etiladi.

Bu joylarda tarvaqaylab osilib o'sadigan ko'p yillik gullar barpo etiladi. Barcha temirli materiallar bo'yoqdan chiqariladi.

Shiyponchalar – ko'pincha besedkalar ko'ptomonli qubba ko'rinishida barpo etiladi. Shiyponchalar bog'-parklarning baland, xushmanzara joylarida daryo va ko'llar qirg'oqlarida, maysazor va gulzorlar atrofida quriladi.



32-rasm. Bog'lardagi dam olish joylarining ko'rinishi.

Yirik bog‘-parklarda shiyponchalar betondan, g‘ishtdan, temirli , toshli va yog‘ochdan nafis ko‘rinishda yasaladi. So‘nggi yillarda temirbetonli 3,5x3,5 yoki 5x5 m va balandligi 2,5-3 m o‘lchamda barpo etilmoqda. Bunday shiyponchalar arzon, gigiyenaga to‘g‘ri keladi va uzoq muddatga chidaydi.



33-rasm.Manzarali ko‘rinishlar.

Chunki bunday materiallardan barpo qilingan shiyponchalar har xil moyli bo‘yoqlardan chiqariladi. Ular zanglamaydi, korroziyaga uchramaydi.

Bog‘-parklarda mavjud bo‘lgan peshayvonlar – bular favqulodda kunlar o‘ta qizib ketsa yoki seryog‘in, do‘l-yomg‘irli kunlarda tashrif buyuruvchilarning vaqtinchalik o‘zlarini panaga oladigan joylaridir. Bunday joylar chiroyli ko‘rinishda, naqshinkor qilib yog‘ochdan, ornamentli qilib g‘ishtdan, temirbetondan, o‘rindiqlar qo‘yilib yasaladi.

Bugungi bog‘-parklardagi ayvonlar chiroyli ko‘rinishda har xil ranglardagi plastmassa, sintetik kauchukdan tayyorlangan

shiferlar bilan ham ishlab chiqilmoqda. Ushbu materiallardan bog‘-sayilgohlarda bufetlar, kafe-barlar, gul navlari qo‘yilgan ayvonlar, bolalar avtomat o‘yingohlari burchaklari, gazeta va jurnallar o‘qiydigan burchaklar tashkillashtirilmoqda.



34-rasm. Arxitektura landshafti va yashil kompozitsiyalar.

Endilikda bog‘-parklarimizda tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatish uchun chiroyli manzarali ko‘rinishdagi kiosklar tashkillashtirilmoqda. Bularda gazeta-jurnallar, har xil kitoblar, bolalar uchun o‘yinchoqlar, daftar, qalam, ruchkalar va boshqa kundalik zarur bo‘lgan yengil assortiment mahsulotlar tashrif buyuruvchilarga savdo-sotiq yo‘li bilan yetkaziladi. Bunga qo‘shimcha sifatida bog‘da telefon-avtomatlari, suv ichish shoxobchalari, radio-televizor burchaklari, ovoz yozish va kasseta do‘konlari tashkil etiladi va ular doimo xalq xizmatida bo‘ladi.



35-rasm. Bogʻlardagi doimiy yashil daraxtlar.

Mavsumiy gullar va butasimon oʻsimliklarni qoʻllab bogʻ-parklarda loyihalar yaratish

Bugungi kunga kelib zamonaviy bogʻ-parklarimizda har xil bir yillik, koʻp yillik gul koʻchatlaridan ajoyib estetik koʻrinishda gulzorlar, kompozitsiyalashgan rabatkalar, maysazorlar tashkillashtirilmoqda. Baʼzi gulzorlar bogʻning umumiy yer maydonidan bir necha sm va baʼzan metrga koʻtarilib sertomosha koʻrinishda toʻrtburchak, parallelogramm va muntazam koʻpburchak sifatida barpo etilmoqda.



36-rasm. Har xil gul turlaridan gilamli mozayika ko‘rinishidagi gulzorlar barpo etish kompozitsiyasi.

Barpo etilgan ushbu gulzor va maysazorlar atrofiga har xil rangdagi tog‘ toshlaridan bordyurlar, himoya devorchalari barpo etiladi. Shuningdek, bog‘-parklarda har xil o‘lchamda bog‘ning umumiy maydonidan kelib chiqib suv havzalari – hovuzchalar, favvoralar va ko‘llar barpo etiladi.

Barpo etiladigan suv havzalari ichi va atrofiga tog‘ toshlaridan chiroyli ko‘rinishda himoya devorchalari tiklanadi. Barpo etiladigan suv havzalari, ariqchalar, ko‘llar atrofiga sersoya manzarali daraxt, buta ko‘chatlari ekib boriladi, bu esa, o‘z navbatida, suv sathining toza bo‘lishida, yozning issiq kunlarida mikroiklim barpo bo‘lishida sharoit yaratadi.



37-rasm. Bogʻ-parklarda suv havzalari kompozitsiyasining koʻrinishi.

Gulzorlarni tashkil qilish – bu loyihalash va ularni amaliyotda bajarishdan iboratdir. Gulzorlar loyihasini xiyobonlar, istirohat bogʻlari va boshqa qurilishlar moʻljallangan joydan ajratilgan holda amalga oshirish mumkin emas.

Gulzor deganda, turli obyektlarni bezatish uchun moʻljallangan va oʻzida maysazorlar, yoʻlakchalar, bir yillik va koʻp yillik gullovchi hamda manzara beruvchi bargli oʻsimliklar va kichik arxitektura shakllarini mujassam etgan maydon tushuniladi.

Gulzorlar qisqa vaqtli dam olish va bezatish uchun ishlatiladi, shuningdek, joyning konfiguratsiyasiga koʻra turli shaklda – toʻrtburchak, choʻzinchoq, yumaloq, toʻgʻri burchak boʻlishi mumkin. Gulzorlar turli oʻlcham va shakldagi klumbalar, maysazorning yashil fonidagi rabatkalar va hoshiyalardan tashkil topadi. Gulzorlar maydoni kichikroq maydonchadan (4-5 dan 20 m² gacha) 1 gektargacha va undan koʻproq boʻlishi mumkin.



38-rasm. Gulzor kompozitsiyasi.

Gulzor aniq tarkibiy qismlarga ega: 1) turli shakldagi gul ekinlari; 2) yo‘lakchalar; 3) maysazor. Ularning klassik mos tushishi, gul ekinlari maydoni, yo‘lakchalar va maysazorlarning 3:5:8 munosabati hisoblanadi. So‘ngi yillarda maysazorlar uchun ko‘proq, gullar uchun esa kamroq joy ajratilyapti.

Yuqorida aytilganidek, eng chiroyli gulzorlar, gul ekinlari, yo‘laklar va maysazorlarning 3:5:8 yoki 5:8:13 nisbatida barpo qilinadi.

Misol. Gulzor uchun 400 m^2 yer ajratilgan. «Oltin proporsiya» qoidasiga ko‘ra, (3:5:8) yig‘indida 16 ta bo‘lim hosil bo‘ladi: $400 \text{ m}^2 : 16 = 25 \text{ m}^2$ ni oltin proporsiya sonlariga ko‘paytirsak quyidagilarni olamiz: $25 \text{ m}^2 \cdot 3 = 75 \text{ m}^2$ – bu maydon gul ekinlariga (klumbalar, rabatkalar, hoshiyalar, guruhlar, alohida ekinlar) uchun

ajratiladi; $25 \text{ m}^2 \cdot 5 = 125 \text{ m}^2$ – bu maydon yo‘lakchalar uchun ishlatiladi va nihoyat $25 \text{ m}^2 \cdot 8 = 200 \text{ m}^2$ – bu maydon maysazor uchun ajratiladi. Bunday qoida asosida ish olib borish ajoyib ko‘rinishdagi kompozitsiya yaratishda asos bo‘ladi.

Gulzorlar tashkil qilishda quyidagi qoidalardan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Gulzor – klumbaning o‘rta, markaziy qismi eng yorqin, diqqatni jalb qiluvchi bo‘lishi kerak. U havza, haykal yonida yoki o‘zicha mustaqil obyekt bo‘lishi mumkin.



2. Gulzordagi gul shakllari mayda bo‘lmasligi kerak, aks holda u xunuk ko‘rinishi mumkin. Oddiy chiziqli yirik shakl hosil qilinishi ma’qulroqdir.

Klumbalar – shakli deyarli bir xil o‘lchamdagi, turli perpendikular yo‘nalishdagi, geometrik tugallangan kontur shaklida bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, gulzor – bu jimjimador gulli jo‘yak, barcha yo‘nalishlarda deyarli bir xil o‘lchamga ega. Klumbalar atrofidagi maysazor yoki yo‘lakchalardan yuqoriroq qilib hosil qilinadi va manzarali o‘simliklar ekiladi.



39-rasm. Bog'-parklarda Magnaliya Sulanja

Klumbalar, odatda, maysazor fonida joylashtiriladi, ochiq maydonlarda esa ularning chetlari ajriq bilan hoshiyalanadi. Gulzor kattaligi turlichadir: 0,75 m dan 7 m gacha va xatto diametri 20 m li bo'lishi mumkin, lekin ko'pincha 4-6 m gacha (eni ko'p tarqalgan) bo'ladi. Klumbalar yuzasi doim do'ng, 5-10° ga qiya qilinadi, ya'ni yuza radiusining har bir uzunasiga o'lgangan metrida 5-15 va undan ko'proq ko'tariladi. Do'ng gulzorlarda gullar yaxshi ko'rinadi va suvning turib qolishi bo'lmaydi.

Rabatkalar(jo'yaklar)—gulzor qismi,jo'yak ko'rinishidagi uzun yer maydoni – gulli ekinzor shakli. Unda gullovchi va manzarali-bargli o'simliklar ekiladi. Rabatkalar –yo'lakchalar, maydonchalar yoki qurilmalar bo'ylab joylashgan gulli jo'yaklardir.

Rabatkalar ishlatilishi va bezatilayotgan maydonga ko'ra turli uzunlik va kenglikka egadir. Eng kaltalari 2-4 m, uzunlari esa bir necha yuz metrgacha bo'ladi.Rabatkalar kengligi 0,5 m dan (juda kam) 3-4 m gacha, ko'proq tarqalganining kengligi 1-1,25 m.

Rabatkalar yuzasi har doim tekis, suvning turib qolmasligi uchun faqat markazga nisbatan ozroq ko'tarilgan bo'ladi. Kengligi 3 m bo'lgan lentasimon ekinlarni, ko'p yilliklarning 5-8 ta jo'yakli yoki bir yilliklarning 8-12 ta jo'yakli ekinlarini rabatkalarga mansub desa ham bo'ladi. Rabatkaning chetlari maysazor bilan baravar yoki undan 4-10 sm baland bo'lishi mumkin.



40-rasm. Bog'larda gullarni joylashtirish.

Nazorat savollari:

- 1. Bog'-park inshootlari nima?*
- 2. Bog'larda jozibador shiyponchalar o'rnatish haqidagi fikringiz?*
- 3. Klumbalar va rabatkalar haqida tushuncha bering.*

Ko‘p yillik o‘simliklar va gazon yordamida bog‘-parklarda shakllar yaratish

Bog‘-parklarning kiraverishi tashrif buyuruvchilar ko‘z nigohida parkning qandaydir manzarali ko‘rinishdagi darvozasi, uning oldi ko‘rinishiga qurilgan favvoralar, qandaydir haykallar ramzi va yerga terilgan har xil shakllarga ega bo‘lgan bruschatkalar qandaydir kompozitsiyaga ega holda tasvirlana boshlaydi. Bog‘ga kirib kelish bilan uning o‘simlik dunyosi, gulzorlar va maysazorlar ko‘zga tashlanadi. Bog‘-parklardagi shunday ko‘rinishlardan biri bu –maysazorlardir.

Gazon – fransuzcha so‘z bo‘lib, maysazor ma‘nosini anglatadi. Maysazor – bu o‘t bilan qoplangan, tabiiy yoki sun‘iy ravishda yaratilgan maydondir. Manzarali bog‘dorchilikda bu tabiiy yoki sun‘iy ravishda yaratilgan o‘tsimon maydon ko‘kalamzorlashtirish, sport maydonchalari va boshqa maqsadlarda ishlatiladi.



41-rasm. Yashil maysazorlar va atrof go‘zalligi.

Yashil maydonlar bunyod etishda (yashillik qurilishda) maysazorlarga katta e'tibor beriladi. Maysazorlar ikki guruhga ajratiladi:

- a) manzarali maysazorlar;
- b) maxsus maysazorlar.

Manzarali maysazorlar o'z o'rnida quyidagilarga bo'linadi: parterli, o'tloq ko'rinishli (bog' va o'rmon bog'dorchiligida), ko'p yillik manzarali gullovchi va mavritaniya (bir yilliklar, xilma-xil gullovchilar).

Maxsus maysazorlar – bular sport (futbol va boshqalar), aerodrom, magistrallarda transport va piyodalar harakatini ajratuvchi (tartibga soluvchi), yo'l chetlaridagi chiziqlarni mustahkamlovchi maysazorlardir.

Parterli maysazorlar bog'ning markaziy qismida va gulzorning asosini tashkil qiluvchi boshqa maydonlarda joylashadi.



42-rasm. Parterli maysazorlar.

Bu maysazorlarga juda katta talablar qo'yiladi: ular, ayniqsa, yuqori sifatli, seryaproq, tusi bo'yicha bir xil, tekis, maysasi zich, pastak bo'lishi kerak. Parterli maysazorlar kichik maydonni egallaydi. Qoida bo'yicha ularga mayda nozik bargli, barglari asosan tupning pastki qismida joylashgan va kesilganidan so'ng tez o'suvchi boshqoli o'tlar ekiladi.

O'tloq ko'rinishidagi maysazorlar kengroq maydonni egallaydi, chunki ular manzarali va boshqa bog' hamda o'rmon-bog'dorchiligining ochiq joylarida ishlatiladi.

Gazonni kesish. Birinchi kesish gazon 10-12 sm o'sganda o'tkaziladi. Bundan erta kesilsa yosh o'simliklarga jiddiy shikast yetishi mumkin. Agar kech kesilsa, pastki qismiga soya berib, xlorofil miqdorini kamaytiradi va kesilgandan keyin, moddalar almashinuvi buziladi. Natijada gazon o'sishi qiyinlashadi va manzarasini yo'qotadi. Keyingi kesishlar esa gazonning holati, ob-havo sharoiti va vegetatsiya davri (yil fasli) ga qarab 5-8 sm bo'lganda kesiladi. Kesish oralig'i bir oyda 4-5 marta.



43-rasm. Zamonaviy texnika vositasida gazonni kesish.

Gazonni kesishdan maqsad faqat tashqi ko‘rinishi uchun emas, balki begona o‘tlarga qarshi kurashishda ham samarali usuldir. Ikki pallali begona o‘tlar ustki qismi kesilgandan keyin qaytadan o‘tib chiqishi qiyinlashadi. Gazon esa oson o‘sadi va barg va ildizidan keluvchi oziq moddalar harakatini tez tiklaydi. Ikki pallali o‘simliklar esa yuqori qismini (barglarni) tez tiklab olmaydi, barglaridan uglevod ololmaydi.



44-rasm. Zamonaviy gazon kesish texnika vositalarida ishlash.

Gazonni oziqlantirish. Gazonni doimiy kesish va sug‘orish tuproq tarkibidagi oziq moddalarning chiqib ketishiga sabab bo‘ladi. Gazonning doimiy manzaraviyligini saqlash uchun mavsum davomida 5-6 marta azotli o‘g‘itlar berib turish kerak. Azot bilan 1-oziqlantirish erta bahorda (qorlar erigandan keyin), ikkinchisi 1-kesishdan so‘ng va oxirgisi avgustning oxirida o‘tkaziladi.

Azotning me'yorlari 100 kv.m. ga 300 g. Masalan, ammiakli selitra (azot miqdori 34,6%) dan foydalansak, 100 kv.m ga 1 kg o'g'it sepiladi. Fosforli o'g'itlar 3 marta beriladi: birinchisi erta bahorda azot bilan birga, ikkinchisi mavsum o'rtasida va uchinchisi kaliyli o'g'it bilan sentabrning o'rtalarida beriladi. Kaliyli o'g'itlar ham 2-3 marta berilishi kerak. Birinchisi erta bahorda azot va fosfor bilan birga va oxirgisi sentabr o'rtalarida fosfor bilan birga beriladi. Shuni esda tutish kerakki, kaliy past haroratga chidamlilikni oshiradi va yaxshi qishlashga yordam beradi. Kompleks o'g'itlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi (ammofoska, nitroammofoska, azofoska va h.k).

Zamonaviy mineral o'g'itlarning gazon uchun maxsus ishlab chiqilgan turlari mavjud. Shulardan KEMIR – tarkibida mikro va makro elementlar mavjud. 100 kv.m ga 5 kg sepiladi. Bundan tashqari Gollandiya va Germaniyada ishlab chiqariladigan o'g'itlar mavjud. Ularga molibdenovo kisliq ammoniy, bor kislotasi, rux va mis sulfatlar bilan ishlov beriladi.

Tuproqning kislotaliligi pH 4,5 va undan yuqori bo'lsa, ohak bilan ishlov berish kerak. Buning uchun 100 kv.m. ga 20-30 kg maydalangan ohak solinadi. Ohak kech kuzda yoki erta bahorda solinadi.

Sport gazonlari o't ustida o'tkaziladigan musobaqalar uchun mo'ljallangan maydonlarda barpo etiladi. Bunda sport turi va maydondan foydalanish davomiyligiga qarab o'simliklarning botanik tarkibi aniqlab olinadi. Sport gazonlari zich ekilishi, past qilib kesilishi va elastikligi hamda, tepkilanish va bo'linishga chidamliligi bilan ajralib turadi. O'yingohdagi o'tloq ishtirokchilarning erkin harakatlanishi, koptokning yetarlicha sakrashi va maydonda harakatlanishini ta'minlashi kerak (ob-havo sharoitlari bundan mustasno). Sport inshootlarini loyihalashtirishda namlik sig'imi va drenaj tizimiga e'tibor qaratish lozim. Sport gazonlari o'yingohlardan tashqari o'yin va sport maydonlarida, oromgoh va maktablar, sportning har xil turlari: golf, futbol, o't ustida xokkey, katta tennis bilan shug'ullanish uchun yaratilgan dam olish uylarida barpo etiladi.

Faol foydalanishga va tepkılanishga chidamli gazon barpo etish uchun oʻtlarning maxsus turlari tanlanadi. Sport gazonlari uchun asosiy oʻt turi sifatida qizil qoʻngʻirbosh, oʻtloq yalpizsimon maysasi, yaylov raygrassi. Oʻyingohning foydalanilishiga qarab gazonni haftasiga 1 yoki 2 marta kesish mumkin. Sport gazonlarini doimiy parvarishlab turish intensiv va uzoq muddatli bosimga chidamlilikni taʼminlaydi.

Mavritan gazonlari – butun yoz davomida chiroyli gullab turuvchi rang-barang maydonlardir. Ular shoxlari yirik, koʻp yillik oʻtlardan va bir yillik gullardan tashkil topadi. Mavritan gazonlarining asosiy fonini past boʻyli (yaylov raygrassi, ovsyanitsa, oddiy va oq polevitsa, oʻtloq myatliki) oʻtlar tashkil etadi. Ingliz mutaxassislari tavsiyasiga koʻra oʻtlar aralashmasi ovsyanitsa va polevitsa boʻlishi shart.



Aralashma tarkibida odatda 10-15 turdagi chiroyli gullovchi bir yilliklari boʻladi. Bularga past boʻyli tur va shakllardan: smolevka, qizil va havorang len, vasilka, klarkiya, bir yillik delfinium, xitoy chinniguli, eshsholsiya, gipsofila, iberis, nigella,

bir yillik kalendula, linariya, o'tloq yo'ng'ichqasi, bo'tako'z, o'tloq moychechagi va h.k. Ba'zan chiroyli gullovchi past bo'yli ko'p yilliklar ham ishlatilishi mumkin.

Urug'lar aralashmasida chiroyli gullovchi o'simliklar 20% dan oshmasligi kerak. 1 m² maydonga, odatda, 10 g tayyor urug'lar aralashmasi sepiladi.

Mavritan gazonlarini parvarishlashda ularni kesishga asosiy e'tibor qaratiladi. Qoida bo'yicha bu gazon erta kesilmaydi, ya'ni bahorda gullovchi gullar urug' bermaguncha (odatda, yozning o'rtalariga, iyulga to'g'ri keladi). Ikkinchi va oxirgi marta gazon sentabr-oktabrda kesiladi. Agar kuzda gullovchi gullar bo'lsa, kesish keyinroqqa qoldiriladi. Kesganda 8-10 sm qoldirib kesiladi va qoldiqlar maydondan chiqarib tashlanadi.

Chiroyli gullovchi bir yillik maysalar yil so'ngida qurib qoladi. Shuning uchun har yili qayta ekishga to'g'ri keladi. Bu jihatdan ko'p yillik chiroyli gullovchi gazonlar yaxshi samara beradi.

Ko'p yillik gazon fonida chiroyli gullovchi ko'p yillik o'simliklar guruhi (qishga chidamli tur va shakllari): proleska, boychechak, muskari, lola, nargis, akvilegiya, qo'ng'iroqgul, dastorgul, moychechak va boshqalar ekiladi.

Mavritan gazonlari yozda gullovchi o'tloqni namoyon etadi. Bu gazonni uyga kiriladigan eshik yonidagi maydonda, sun'iy suv inshootlari qirg'og'ida, daraxtlar tanasi atrofida ekish tavsiya etiladi. Mavritan gazonlari peyzaj stilida barpo etilgan park va bog'lar uchun mos keladi. Gazon ichidagi gullarning bosilishi (tepkilanishi) ni oldini olish uchun ular ichiga yo'lak o'tkazish kerak. Yosh mavritan gazonlari mavsum davomida 3 marta (5-8 sm qoldirib) kesishni talab etadi. Bu gazon oddiylariga qaraganda baland qoldirib kesiladi, shuning uchun ham manzarali ko'rinish hosil qilishda oddiy gazonga nisbatan samaraliroqdir. Mavritan gazonlarini parvarishlash oddiy gazonniki kabi bo'ladi. Har qanday gazonning maysazorida o'z vaqtida o'g'itlash va yomg'irnatish usulida sug'orish ishlarini o'tkazib borish zarur bo'ladi.

Gazon urug‘larini ekish me‘yori

№	Gazon turlari	Sinfi	Asosiy tur urug‘ining miqdori	1 kg da begona o‘t urug‘larining soni	Unuvchanlik, kamida, %	Xo‘jalik yaroqliligi.	1000 ta urug‘ og‘irligi, gramm	Ekish me‘yori kg/ga
1.	O‘tloq yalpizi	I	95	500	75	-	0,25	45-55
2.	Oddiy yalpiz	0						50-60
3.	O‘rmon yalpizi	-						60-70
4.	Qizil qo‘ng‘irbosh	I	96	250	85	-	1,10	100-120
		II	90	1000	80	72		
		III	80	2500	60	-		
5.	O‘tloq qo‘ng‘irboshi	I	97	250	90	-	1,85	120-140
		II	92	1000	85	78,2		
		III	85	3000	75	-		

6.	Qo'ng'irbosh	-						90-110
7.	Dala maysasi	I	95	500	85	-	0,15	25-30
		II	85	4000	75	63,75		
		III	75	10000	65	-		
8.	Mayin dala maysasi	-						20-25
9.	Oddiy maysa	-						20-25
10.	Yaylov raygrassi	I	97	250	90	-	2,15	120-140
		II	92	1000	85	78,2		
		III	85	3000	75	-		
11.	Vestervold raygrassi	I	95	250	90	-	1,55	
		II	85	1000	80	68		
		III	80	2500	70	-		

12.	Baland bo‘yli raygras	I	95	250	90	-	2,70	
		II	85	2000	80	82,48		
		III	80	5000	70	-		
13.	Raygras	-						100-120
14.	Bir yillik raygras	-						100-110
15.	Oddiy zamburug‘	-						70-90
16.	O‘tloq “tulkidumi”	I	90	500	85	-	0,80	70-80
		II	80	2000	75	60		
		III	75	4000	60	-		
17.	Oq beda	-					0,69	40-50
18.	Eja	I	96	250	90	-	1,20	100-120
		II	90	1000	80	72		
		III	80	4000	70	-		


Nazorat savollari :

- 1.Ko‘p yillik gul o‘simliklari va maysa turlariga ta’rif bering.
- 2.1000 m² maydonda manzarali maysazorlar barpo etish uchun gazon turlarini tanlang va urug‘ sarfini aniqlang.
- 3.Mavritan gazonlari uchun gul turlarini tanlang va ularga ta’rif bering.

Bog‘-parklarda Bosh va Dendro rejalar asosida loyihalashtirish ishlarini bajarish

Rejalashtirilgan hududda bog‘-parklar barpo qilish uchun oldindan tuzilgan maxsus Bosh reja ishlab chiqiladi. Bosh va dendrorejani tayyorlashda talabalar birdaniga rejani chizishni boshlamaydi, oldin ular kichik format qog‘ozlarda bog‘-park chegaralarini belgilash, masshtablardan foydalanish, yashil o‘simliklarni qog‘ozlarda tasvirlash belgilarini o‘rganish, kichik-kichik klumbalar va gulzorlarni qog‘ozda tasvirlash ishlarini bajaradilar. Ushbu rejada bog‘dagi asosiy inshootlar, temir-yo‘llar, vagonlar, oshxonalar, kafelar, gul do‘konlari va matbuot burchagi ko‘rsatiladi. Ushbu rejani tayyorlashda bog‘dorchilik bo‘yicha va uni manzarali landshaftini ko‘rsata oladigan muhandis xodimlar, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish bo‘yicha maxsus ishchi xodimlar qatnashadi. Rejaning mazmuni obdon o‘ylab ko‘rilgandan so‘ng ishlab chiqarishga tavsiya etiladi. Rejada yer osti kommunikatsion tizimlar majmui ko‘rsatiladi. Bog‘dagi xavfsizlik qoidalariga rioya qilingan holda maxsus masshtab asosida ushbu reja oxiriga yetkaziladi. Rejaga javobgar shaxslar imzo qo‘yadilar va uning vaqti ko‘rsatiladi. Ushbu Bosh rejada yangidan ekiladigan manzarali o‘simlik turlari ko‘rsatilmaydi, faqat o‘sib-rivojlanib turgan o‘zining manzarali ko‘rinishini yo‘qotmagan saqlab qolinadigan daraxt va buta turlari ko‘rsatiladi. Bosh rejada avtomobil yo‘llari, odamlar harakatlanadigan doimiy va so‘qmoq yo‘llar va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari ko‘rsatiladi. Reja muhandis xodimlar tomonidan chizib tayyorlanadi. Rejani tayyorlashda arxitektura qurilish boshqarmasining maxsus muhandis ishchi mutaxassislari bilan kelishilgan holda tayyorlaniladi.

Yuqorida barpo etilgan Bosh reja asosida bog‘-park xo‘jaligi-ning Dendrorejasi tuziladi.



45-rasm. Peyzaj ko‘rinishda tayyorlangan dendroreja.

Rejada bog‘da barpo etiladigan manzarali daraxt, buta va gul ko‘chatlari turlari va miqdori ko‘rsatiladi. Bog‘da manzarali ko‘rinishdagi ko‘rkam fasad barpo qilish uchun o‘rmonchi-bog‘bonlar manzarali daraxt ko‘chatlarini to‘g‘ri tanlay bilishi zarur. Ko‘chatlar qayerdan, qaysi vaqtda va qanday holatda olib kelinishi oldindan belgilanadi va kerakli zarur bo‘lgan ish qurollari tayyorlanadi. Ko‘chat ekiladigan maydonlar qoidaga muvofiq oldindan tayyorlaniladi. Ko‘chat ekishda nina va yaproq bargli daraxtlardan kompozitsion ko‘rinishda bog‘da tashrif buyuruvchilarga estetik zavq bag‘ishlaydigan ko‘rinish namoyon qilishda maxsus hududlar tanlanadi.

Kompozitsion ko‘rinishlarni qog‘ozda tasvirlashda bog‘-park qurilishi va ko‘kalamzorlashtirishning o‘simlik dunyosi shakllarini, shuningdek qurilish inshootlari tasvirini maxsus shartli belgilarda tushirib ish joyining dendrorejasi tayyorlanadi. Tayyorlangan ushbu dendroreja uzoq saqlanadi, mutaxassislar

tomonidan doimo o'rganib boriladi. Agar bog'-parkning biror-bir hududida qo'shimcha o'zgartirishlar va ekish ishlari bajariladigan bo'lsa, rejaga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritib boriladi.

Shuningdek, bog'da respublikamizdan oxirgi yillarda bog'dorchilikda, sayilgohlarda foydalaniladigan ajoyib gul ko'chatlaridan ko'rkam ko'rinishdagi fasad beruvchi gulzorlar, xiyobonlar va rabatkalar tashkillashtirish rejalashtiriladi. Xuddi shu vaqtda gulzorlar bilan yonma-yon ko'rkam baxmal ko'rinishdagi maysazorlar barpo etish ham Dendrorejaga kiritiladi.

Ushbu rejaga bog'-park xo'jaligi uchun sug'orish ishlarini bajarishda va tashrif buyuruvchilarga foydalanish uchun suv manbalari izlab topiladi va bunday dolzarb yo'nalishdagi ishlar rejaga kiritiladi.

Bog'-park xo'jaligidagi bajarilayotgan barcha ishlar uchun texnika-xavfsizligi qoidalariga rioya etish va buning uchun zarur bo'lgan texnika vositalari bilan ta'minlash, manzarali daraxt, buta va gul ko'chatlarini kasallik va zararkunandalardan saqlashdek muhim tadbirlar oldindan rejaga kiritiladi va mas'ul xodimlar tomonidan uzluksiz nazoratda bo'ladi. Bog'-park xo'jaligining tashqi ta'sirlardan himoyalash vositalari oldindan o'ylab ko'riladi. Bog'-parkda yong'in xavfsizligi qoidalariga qattiq rioya qilinadi. Zarur bo'lgan inventarlar bilan ta'minlanadi.

Bog'-park xo'jaligida respublikamiz miqyosida o'tkaziladigan barcha bayram va bayramoldi tadbirlarini olib borishda oldindan xo'jalik bo'yicha tuzilgan maxsus komissiya bilan kelishib olinadi. Bu tadbirlarda ishlarni oqilona o'tkazishda, zarur bo'lgan savdosotiq mahsulotlari bilan ta'minlanishda, bog'da tashrif buyurgan bolalar guruhlarini har xil turdagi o'yinchoqlar va shirinliklar bilan ta'minlanishida xo'jalik ma'muriyati oldindan tayyorgarlik ko'rib boradi.

Loyiha ishlarini bajarishda mutaxassis tomonidan maxsus ish daftari yuritiladi. Daftarda kunlik bajariladigan asosiy ish turlari va uning hajmi qayd qilib boriladi va shu asosda maxsus shakllar(forma) to'ldiriladi. Uning mazmuni quyidagicha:

Ish daftarini yuritish tartibi

Qurilish obyekti bo'yicha _____

Ustaning ish tartibi _____

(Familiyasi, ismi va sharifi)

1. Qurilishning ish joyi _____

2. Smeta qiymati _____ (mln so'm)

3. Ishning boshlanishi _____

_____ ishning tugashi _____

4. Obyektni foydalanishga topshirish _____ (shartnoma
bo'yicha) _____ (haqiqiy)

5. Loyiha va smeta ishlab chiqilgan _____

6. Loyiha va smeta tasdiqlangan _____

7. Buyurtmachi _____

8. Bajaruvchilar _____

9. Ish bajarilayotgan va kelishilayotgan tashkilotlar _____

**Bog‘-park qurilishi bo‘yicha bajarilayotgan ishlarning
topshirish va qabul qilish bo‘yicha
DALOLATNOMASI**

Shahar (qishloq) _____ 20 __ y

Bog‘-park qurilishi ishlarini tugallab tuzilgan komissiya tarkibi
bajaruvchi, buyurtmachi, loyiha muallifi _____

Tuzdi ushbu dalolatnomani bog‘-park qurilishi bo‘yicha
umumiy _____ maydonda ish bajarilgan, manzarali daraxt
va buta ko‘chatidan _____ dona ekilgan, maysazor uchun
_____ ga maydon ajratilgan.

Imzolar:

Bajaruvchilar _____

Buyurtmachilar _____

Loyiha muallifi _____

Foydalanayotgan tashkilot _____

Tabiatni muhofaza qilish tashkiloti _____

**O‘zbekiston Respublikasi qurilish va obodonlashtirish
boshqarmasi**

Inventar № _____

Ish joyini ko‘kalamzorlashtirish

PASPORTI

(ish joyining nomlanishi)

Qaysi tashkilotga (tumanga) qaraydi _____
(tashkilot nomi)

Shahar, posyolka _____

Ish joyida quyidagilar mavjud:

№	Reja bo‘yicha №	Nomlanishi	O‘lchov birligi	Miqdori	Izoh
1	2	3	4	5	6

Bog‘-parklarga oid atamalar

Alpinariy – bog‘ yoki parkning baland tog‘larga xos o‘simliklar o‘stiriladigan maxsus qismi, odatda toshloq tog‘ yoki qir ko‘rinishida ishlanadi.

Amfiteatr – Yunoniston va Qadimgi Rimda ochiq tomoshagoh inshooti. Tarhi ellips yoki yarim doira shaklida balandlab boruvchi o‘rinlarga ega inshoot. XVII— XVIII asrlarda amfiteatrlar parklarda tomosha tadbirlarini o‘tkazish maqsadida qurila boshlagan.

Ansambl – yaxlit badiiy-estetik shaklda yaratilgan majmua. O‘zaro funksional bog‘langan inshootlar, o‘simliklar va boshqa landshaft elementlarining yaxlit bir uyg‘unlashtirilgan me‘moriy omuxtasi.

Anfilada – zallar, xonalar qatori. Parklarda bir o‘q bo‘ylab joylashgan o‘tish joylari bilan bog‘langan saroylar, alohida yashil yopiq muhitlar qatori.

Assortiment – muayyan joy yoki landshaft obyektini ko‘kalamzorlashtirishda qo‘llaniladigan turli xil daraxtlar, butalar va gullar to‘plami.

Arabeska – bog‘-parkchilik san’atida xandasaviy shakllar, barg, gul, shoda va shu kabilarning tasviridan tarkib topgan murakkab naqshli gulzor, parter yoki to‘shama. Dastlab arab arxitekturasiga xos bezak bo‘lganligidan shunday nom olgan.

Arxitektura – qurilishda shakl va mazmun hamda hajmlar uyg‘unligiga erishish san’ati. Jamiyatning moddiy madaniyati va san’atini o‘zida yaxlit tarzda mujassamlashtira olgan inson ijodining mahsuli – me‘moriy asar.

Arxitekturaviy bog‘ – bog‘ imoratlari va boshqa sun’iy yaratilgan inshootlar, ko‘plikni tashkil qilgan va muayyan kompozitsiya asosida yaratilgan bog‘lar turi.

Botanik bog‘ – botanika, o‘simlikshunoslik va ko‘kalamzorlashtirish sohalarini o‘rganish, ilmiy-tadqiqotlar o‘tkazish, madaniy-oqartuv ishlarini olib borishga mo‘ljallangan yashil massiv, bog‘.

Bulvar – ko‘chalarning yon tomoni yoki ikki yoniga, sohil bo‘ylab piyodalar harakati, dam olishlari va sayr qilishlari uchun keng ko‘kalamzor xiyobon.

Barokko – Italiyada keyinchalik G‘arbiy Yevropada XVI asr oxiridan to XVIII asr o‘rtalarigacha keng tarqalgan serhasham badiiy uslub.

Bordyur – bog‘lar va parklarda gulzorlar yoki parterlarni chegaralab turuvchi pastqam ingichka yashil hoshiya, jiyak.

Garmoniya – me‘moriy shakllar yoki landshaft elementlarining o‘zaro uyg‘unligi, bir-biriga monandligi, muvofiqligi, badiiy jihatdan mosligi (xandasaviy shakllar, ranglar, hajmlar garmoniyasi va hokazo).

Geoplastika – landshaft loyihasini ko‘kalamzorlashtirishda mo‘ljallangan yer maydonini me‘moriy va badiiy qayta ishlash maqsadida tekislash va tartiblashtirish.

Dendrariy yoki dendropark – ochiq joyda aniq reja bo‘yicha turli xil daraxt va butalardan iborat yashil massivdan tuzilgan maxsus bog‘ yoki botanik bog‘ning bir qismi.

Dizayn – loyiha ma‘nosini beradi. Landshaft arxitekturasida dizayn so‘zi «me‘moriy muhit dizayni» ma‘nosida anglashilib, u ushbu muhitda badiiylik asosida yaratilgan yashil o‘simliklar, gulzorlar, suv havzalari, geoplastika, tashqi obodonlashtirish elementlari, shu jumladan, mo‘jaz me‘moriy shakllar va to‘shamalarni ham qamrab oluvchi ijodiy soha.

Kichik arxitekturaviy shakllar – bog‘-park kompozitsiyasining sun‘iy elementlari: shiypochalar, rotondalar, pergolar, trelajlar, arkalar, kiosklar, pavilonlar, skameykalar, urnalar, haykallar va h.k.

Klumba – bu doira, uchburchak, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, romb va boshqa shakldagi turli muntazam geometrik shakldagi gulzorlardir.

Kompozitsiya – san‘at asarining barcha element va qismlarini yaxlit bir garmonik tizimda tashkil etish va birlashtirish. Bog‘-parkchilik kompozitsiyasi asosan ikki-rejaviy va hajmiy qismlardan tarkib topadi. Ranglar nisbati ham kompozitsiyaning muhim elementlaridan biridir.

Klumbalar – bu doira, uchburchak, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak, romb va boshqa shakldagi turli muntazam geometrik shakldagi gulzorlardir.

Ko‘kalamzorlashtirish – landshaftni qayta tiklash, qishloq joylarida, sanoat muassasalari atrofida himoya o‘rmon chiziqlarini yaratish, ko‘cha va magistrallar bo‘ylab, turarjoy va kichik tuman chegaralarida, bog‘ va parklarda ekinlar ekish bo‘yicha muhandislik va agrotexnik tadbirlar yig‘indisi.

Ko‘kalamzorlashtirish me‘yori – shaharning bitta aholisiga to‘g‘ri keladigan ko‘kalamzorlashtirilgan maydonni ifodalovchi ko‘rsatkich (m.kv. da).

Landshaft – yer sathi, tabiiy (o‘simliklar, relyef, tuproq, suv, hayvonot dunyosi) va sun‘iy (me‘moriy muhandislik inshootlari) ishlanmalar bilan badiiy va ekologik qonuniyatlar asosida shakllantirilgan hudud.

Landshaft arxitekturasini – atrof-muhitni tabiiy va sun‘iy me‘morchilik qurilmalari va elementlari yordamida badiiy shakllantirish san‘ati, me‘moriy faoliyatning alohida turi, landshaft yaratish amaliyotining nazariy asosi.

Landshaft dizayni – turli hil landshaft obyektlarini yaratish uchun tuzilgan loyiha, landshaft obyektlarining sun‘iy elementlarini badiiy-

estetik va ekologik qonuniyatlar asosida muayyan funksiyalarga moslab yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyat turi.

Maysazor – bogʻlarda koʻp yillik boshqoli oʻtlardan ekilgan yashil maydon. Vazifasiga koʻra maysazorlarning sport oʻyinlari maydoni, maxsus vazifalarga va manzarali maydonlarga moʻljallangan xillari mavjud. Manzarali maysazorlarning parterli, oddiy va yaylovli turlari mavjud.

Panorama – katta tabiat quchogʻini erkin tomosha qilishga moʻljallangan keng perspektivali koʻrinish.

Park–bogʻ-parkchiliksanʼatiqonuniyatlariasosidashakllantirilgan va aholining dam olishi uchun moʻljallangan yashil massiv. Parklar vazifasiga koʻra sport, bolalar parkiga, madaniyat va istirohat parkiga, zooparkka, memorial parklarga va boshqa vazifalarga moʻljallanishi mumkin.

Parter – skverlar, parklarning serhasham joylari, jamoa binolari oldilarini bezovchi manzarali tekis maysazor yoki gulzor maydonlar. Parterda hovuzlar va haykallar ham boʻlishi mumkin. Parterlar guli, maysalik va jimjimador naqshli xillarga ega.

Peyzaj – joy yoki tabiat manzarasining umumiy koʻrinishi, hajm-fazoviy tuzilishi jihatidan ochiq, yarim ochiq, yarim yopiq va yopiq manzaralarga boʻlinadi.

Pergala – chirmoviqqlarga burkangan yassi panjarasimon yengil qurilmani koʻtarib turuvchi bir yoki ikki qator ustun, tirgaklardan iborat bogʻ-park imorati.

Rabatka – xiyobon, yoʻlak boʻylab ekilgan uzun tasma koʻrinishidagi gulzor, bir yillik oʻsimliklarning bir yoki bir necha xillaridan koʻp qatorlab ekiladi.

Tabiiy landshaft–asosiy landshaft komponentlari – yer yuzi, havo, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi oʻzaro uygʻun va oʻzaro bogʻliq boʻlgan birlikni tashkil etgan hududiy majmua, fazoviy muhitdir.

Yashil devorlar – daraxtlardan yoki balandligi 2,5–4 m, eni 1–1,3 m baland butalardan zich qilib ekilgan joylar.

Skver – shahar ichida uncha katta bo‘lmagan (to 1 gektargacha) qisqa vaqtli dam olish va ayrim me’moriy komplekslarni bezash uchun mo‘ljallangan ko‘kalamzor hudud.

Trelaj – tirmashuvchi o‘simliklar uchun sinch vazifasini bajaruvchi yengil yog‘och panjara yoki boshqa materiallardan ishlangan shunday qurilma.

Xiyobon – bog‘ qismlarini o‘zaro ulaydigan bosh yo‘l, ikki yoniga qator daraxtlar, gullar ekilgan, ariqlari yoki favvoralari bo‘lgan sayrgoh yo‘l. Xiyobon usti ochiq yoki yopiq bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada kuchaytirish va fuqarolik jamiyatining rivojlantirish konsepsiyasi”. T.2010.
2. Karimov I. A. “Tarixi boy,buguni go‘zal,kelajagi buyuk shahar” T.2009.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2007- yil, 7-sentabrdagi 186-sonli qarori.T.2007.
4. Ablayev S.M., Yuldashev Ya.H. “Madaniy o‘rmonlar”. T.2008.
5. Abduraxmanov L.A., Slavkina T.I. ”Озеленительный ассортимент и уход за городскими насаждениями Узбекистана” T.1980.
6. Bo‘riyev H.Ch., Djanonbekova A.T.”Gulchilik “.T.1999.
7. Боговая И.О., Теодоронский Т. «Озеленение населенных мест». М. 1990.
8. Славкина Т И., Подольская О.И. “Декоративное садоводство”. Т. 1987.
9. Qayimov A.Q., Berdiyev E.T. “Dendrologiya “. T.2012.
10. Qalandarov M.M., To‘raqulov A. “Ko‘kalamzor hududlar barpo etaylik”. T. 2008.
11. Печеницын В.П., Азамов А.А. “Культура озеленения”. Т. 2005.
12. Нехуженко Н.А. “Основы ландшафтного проектирования и ландшафтного архитектуры”. С.Петрбург, 2004.
13. Xonazarov A.A., Sh.T. Yusupov va boshqalar. “O‘zbekiston hududini ko‘kalamzorlashtirishda foydalaniladigan asosiy manzarali daraxtlar va butalar”. T.2008.
14. Холявко В.С., Глоба - Михайленкою “Дендрология и основа зеленого строительства “.М.1976.
15. Честмир Бем и другие. “Энциклопедия садовода“. Прага.1987.
- 16.В.С. Теодоронский, А.И. Белый. «Садово-парковое строительство и хозяйство». М. 1989.
- 17.М.М. Рубцов. «Проектирование садов и парков». М.1983.

MUNDARIJA

Kirish. Bog‘-park ishlari haqida tushuncha.....	3
Bog‘-park hududida yer maydonlarini tayyorlashda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda ishlash.....	8
Bog‘-park qurilishida yo‘l va maydonchalar barpo etish.....	21
Manzarali o‘simliklar yordamida bog‘-parklarda turli shakllarda kompozitsiyalar yaratish.....	27
Bog‘-park inshootlari va bog‘larni zarur bo‘lgan asbob-uskunalar – inventarlar bilan ta’minlash.....	42
Mavsumiy gullar va butasimon o‘simliklarni qo‘llab bog‘-parklarda loyihalar yaratish.....	50
Ko‘p yillik o‘simliklar va gazon yordamida bog‘-parklarda shakllar yaratish.....	57
Bog‘-parklarda Bosh va Dendro rejalar asosida loyihalashtirish ishlarini bajarish.....	67
Bog‘-parklarga oid atamalar.....	73
Foydalanilgan adabiyotlar.....	78

M.M. Qalandarov

BOG‘-PARK ISHLARI

Muharrir *R. Zaparov*
Badiiy muharrir *Ye. Krasnikova*
Musahhih *A. Akbarov*
Sahifalash «Davriy nashriyoti»

Nashriyot litsenziyasi № AI 227.
Bosishga 14.08.2013-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$. Ofset usulida bosildi. «Times» garniturasini.
Nashr b.t. 4,5. Shartli b.t. 5,0 Adadi 50 nusxa.
Buyurtma № 1115/13.

«DAVR nashriyoti» MCHJ. 100129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O‘qituvchi» nashriyot-matbaa
ijodiy uyi hamkorligida chop etildi. Toshkent, Yunusobod dahasi,
Yangi shahar, 1.